

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI
AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI

UDK
Qo‘lyozma huquqida

MAGISTRATURA BO‘LIMI
O‘ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI

KENJAYEV FARHOD IKROM O‘G‘LI
«ABDULLA ORIPOV SHE‘RIYATIDA INSON TAQDIRI TALQINI
(“Haj daftari” turkumi misolida)»

Mutaxassislik: 5A111201 - o‘zbek tili va adabiyoti

Magistr

akademik darajasini olish uchun yozilgan

D I S S E R T A T S I Y A

Davlat attestatsiya komissiyasida
himoya qilishga ruxsat berildi.

Magistratura bo‘limi boshlig‘i:

dots. M.Allamberganova

Kafedra mudiri:

dots. S.Matyakupov

Ilmiy rahbar:

dots. S.Matyakupov

NUKUS – 2019

MUNDARIJA

KIRISH

I BOB. ABDULLA ORIPOV SHE'RIYATINING G'OYAVIY-BADIIY

XUSUSIYATLARI

1.1. Shoir she'riyatida lirik kechinma va badiiy ifoda

1.2. Badiiy mukammallik va falsafiy teranlik.

II BOB. ABDULLA ORIPOV SHE'RIYATIDA POETIK YANGILANISH VA MA'NAVIY-AXLOQIY MUAMMOLAR

TALQINI

2.1. Shoir she'riyatida umuminsoniy qadriyatlar talqini

2.2. Inson ma'naviy olamining falsafiy va xalqona talqini.

III BOB. DINIY-MA'RIFIY G'OYALAR BADIIY TALQINI

3.1. "Haj daftari" turkumi shoir she'riyatida yangi yo'nalish sifatida .

3.2. "Haj daftari" turkumida diniy-axloqiy g'oyalar talqini.

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

KIRISH

Dissertatsiya mavzuning asoslanishi va dolzarbligi. O‘zbekiston xalq shoiri, O‘zbekiston Qahramoni, shoir, jamoat arbobi A.Oripov ijodi o‘zining mo‘jizakor qudrati hamda shiddatkor ohanggi bilan kitobxonlarni hamon hayratlantirib kelmoqda. Aytish mumkinki, A.Oripov A.Muxtor ta’biri bilan aytganda, she’rga badiiy falsafa sifatida qaraydigan ijodkorlar sirasiga kiradi. Shoir e’tiqodi, uning ruhiy borlig‘i, tayanch markazi – inson. Zakiylar bedavo dard, deya e’tirof etgan olam va odam qismati qayg‘usi uning ijod tomirlariga tutash. Hayotning, voqelikning ko‘ngil vositasida kechgan tuyg‘ulari suvratini chizish, ong va tafakkurda ko‘z ochayotgan ruhiy kechinma hamda holatlarni manzaraga yig‘ish, ifodani nozik ilg‘am-hissiy jilvalarda gavdalantirish, falsafiy ta’kid, publitsistik e’tirof va psixologik holat uyg‘unligini tayinlash mazkur badiiy izlanishlarning yetakchi belgisi.

Istiqlol davri ma’naviyati va madaniyatini Abdulla Oripov she’riyatisiz tasavvur qilish mushkul. Negaki, o‘tgan asrning 60-yillari adog‘ida o‘zbek adabiy tizimini jonlantirgan hamda sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘targan shoir ijodi nisbatan qisqa vaqt oralig‘ida millat tuyg‘u va onggida tub burilish yasaganligini inkor etib bo‘lmaydi. Uning g‘oyaviy-badiiy izlanishlarida ilg‘or adabiy-estetik an’analarning ijodiy voqelikni poetik tadqiq qilish tamoyillarini belgilab berayotganligi, inson ruhiy olamini teran badiiy inkishof etishga moyillik kuchayib borayotganligi, estetik qadriyatlarni qayta baholash jarayon tusini olganligi shundan dalolat beradi. Ijodiy yuksalish alomatlari, ayniqsa, mustaqillik davri ruhiyatida A.Oripov poetikasining yangi sahifalari ochilganligida yanada yorqinroq namoyon bo‘ladi. Ajdodlarimizning boy ilmiy va adabiy merosining ham ma’naviy-axloqiy, ham ma’rifiy tomondan o‘tkaza boshlagan ta’siri shoir ijodida ham o‘chmas iz qoldirdi. Jumladan, «Haj daftari», «Hikmat sadolari» turkumlari A.Oripov

she'riyatida diniy g'oyalarning xalqona ohang kasb etishi, tasavvufiy aqidalarga moyillikning ortishi, bedilona ifodaning shakllanishi, rumiyona falsafiylikning kuchayib borayotganligini dalolatlaydi. Yangicha ilmiy-nazariy qarashlar shakllanish tarzi badiiy jarayondagi o'zgarishlar bilan bog'liqligini hisobga olsak, masalaning mohiyati yanada oydinlashadi. Shu nuqtai nazardan tadqiqotimiz obyekt sifatida Abdulla Oripov qalamiga mansub ijod namunalari tanlab olindi. Negaki, she'riyatdagi rang-baranglik, inson ruhiyatining ijtimoiy-axloqiy-psixologik teranliklariga kirib borishga intilish, g'oyaviy mundarijada yuzaga kelgan evrilishlar natijasi o'laroq kuzatilayotgan yangicha badiiy tamoyillar mushtarakligi A.Oripov so'nggi bosqich ijodiy izlanishlarida salmoqli o'rin tutadi.

A.Oripov badiiyatini o'rganish vositasida g'oyaviy va estetik munosabat nisbatini teran tadqiq qilish, poetik tasvir mezonlariga aniqlik kiritish imkoni tug'iladi. Lirik ifodadagi o'ziga xoslik va umumiy mohiyatni A.Oripov diniy-ma'rifiy g'oyalar misolida kuzatish ishning dolzarbligini belgilaydigan muhim omillardan hisoblanadi.

Tadqiqot obyekti va predmeti. Magistrlik dissertatsiyasini yozish jarayonida I.Sulton, O.Sharafiddinov M.Qo'shjonov, N.Karimov, B.Nazarov, P.Qodirov, U.Normatov, I.G'afurov, A.Rasulov, B.Akramov, B.Sarimsoqov, I.Haqqul, N.Rahimjonov, Suvon Meli, A.Ulug'ov, U.Hamdammov, U.Jo'raqulov kabi o'zbek olimlarining badiiy adabiyot poetik mohiyati, badiiy so'z estetikasi masalalariga bag'ishlangan asarlaridagi mushohadalar ilmiy-metodologik asos vazifasini o'tadi. Taqdim etilayotgan tadqiqot tahlili o'rni-o'rni bilan badiiy tahlil, qiyosiy-tipologik va tarixiy-analogik usullar mushtarakligi asosida amalga oshirildi.

Tadqiqot maqsad va vazifalari. Badiiy fikr shakllanish va namoyon bo'lish tarzi muayyan axloqiy mezonlarni tavsiflaydi. Binobarin, badiiy talqin uzvini o'rganishdan ko'zlangan niyat badiiyat atalmish ko'pqatlamli -

murakkab tizim to'g'risida to'laroq tasavvur hosil qilishga yo'naltirilgan. O'z-o'zidan ayonki, muhokama ma'nosi she'riyatda yanada teranlashadi. Tadqiqotning maqsadi badiiy ifoda madaniyatining umumiy mohiyati va lirikada namoyon bo'lish tarzi ba'zi qirralarini Abdulla Oripov ijodida inson va uning taqdiri, diniy-ma'rifiy g'oyalar misolida ilmiy- nazariy umumlashtirishdan iborat.

Mazkur maqsaddan kelib chiqqan holda quyidagicha vazifalar belgilandi:

➤ Shoir ijodida inson va uning taqdiri muhokamasi, badiiy mushohada hamda ijodiy niyatning reallashuvida g'oyaviy va badiiy muvozanatga aniqlik kiritish;

➤ Abdulla Oripov lirikasidagi adabiy fikr mantiqiy taraqqiyoti ta'minoti bilan bog'liq o'ziga xoslik qirralarini tadqiq etish;

➤ ijtimoiy voqelik va obrazlararo uyg'unlikdagi shoir estetik printsiplarini ochib berish va nazariy jihatdan tavsiflash;

➤ ijodiy g'oya ifodasida falsafiy-badiiy talqin salmog'ini kuzatish;

➤ adabiyotda diniy va dunyoviy mavzular uyg'unligini;

➤ shakliy-uslubiy izlanishlarni yangicha estetik tahlilga tortish.

Ilmiy yangiligi. Abdulla Oripovning «Haj daftari» she'riy turkumi inson va uning taqdiri badiiy talqini nuqtai nazaridan maxsus o'rganilgan emas. To'g'ri, shoir Abdulla Oripov ijodi ko'pgina ilmiy tadqiqotlar uchun manba bo'lgan bo'lsa-da, u tadqiqotlarning ayrim qismlarigina tashkil etgan. Shunga ko'ra mazkur magistrlik dissertatsiyasida A.Oripov ijodida inosniy iztiroblar, uning fe'lidagi ma'naviy-axloqiy muammolarni shior ijodida yangi yo'nalishni kasb etgan «Haj daftari» she'riy turkumi mioslida maxsus tadqiqot olib borishni talab qiladi. Shu ma'noda, bu borada taqdim etilayotgan tadqiqot yangilik bo'lib, maxsus obyekt sifatida ilk bora mustaqillik mafkurasi asosida shakllangan qarashlar asosida yoritildi hamda

mavjud ijtimoiy hayot hamda adabiy tanqidchilik nuqtai nazaridan tahlil qilindi.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari. Tadqiqot asosiy masalalari va tahlil natijalari yuzasidan ilgari surilgan ilmiy farazlar quyidagilarda aks etdi:

– A.Oripov asarlarida inson taqdiri talqinining muayyan davr psixologiyasi bilan hamohangligi;

– shoir badiiy tafakkurida individual yondashuv hamda estetik tamoyillar rang-barangligi tavsifi;

– inson taqdirini badiiy talqin qilish hamda ularda davr ruhiyatiga munosabat masalasini aks ettirishdagi o‘ziga xoslik;

– ma’naviy-axloqiy muammolar talqini;

– diniy ma’rifiy g‘oyalar talqini;

– shoir ijodida shakliy-uslubiy izlanishlar;

– “Haj daftari” turkum she’rlarida inson qadri masalasini tahlil qilishda asar yaratilgan davr adabiy tanqidchiligiga ham bugungi kun nuqtai nazaridan munosabat bildirish.

Tadqiqot mavzusi bo‘yicha adabiyotlar sharhi (tahlili). Dissertatsiyada jahon, rus va o‘zbek adabiyotshunosligida badiiy ijod nazariyasi, she’riy janrlar o‘ziga xosligi hamda A.Oripov ijodiy tadrijiga bag‘ishlangan monografik tadqiqotlar, ilmiy qarashlar jiddiy o‘rganib chiqildi. Shuningdek, shoir ijodi shakllanishi hamda taraqqiyoti, hozirgi adabiy jarayonda tutgan maqomi masalasiga bugungi kun nuqtai nazaridan munosabat bildirildi.

Tadqiqotda qo‘llanilgan metodikaning tavsifi. Magistrlik dissertatsiyasini yozish jarayonida adabiyotshunos olimlarning A.Oripov ijodi, shuningdek, o‘zbek she’riyati muammolari xususidagi tadqiqot va ilmiy maqolalarga tayanilgan holda qiyosiy tahlildan keng foydalanildi. Tahlil

qilingan asarlarda shoir ifoda etmoqchi bo'lgan g'oyalarni aks ettirishda ijodkor uslubidagi o'ziga xoslikka alohida e'tibor qaratildi. Xususan, tadqiqotning obyekti bo'lgan "Haj daftari" turkumida inson taqdirini keng talqin qilishda shoir ijodiga xos bo'lgan xususiyatlarni tahlil qilish maqsadida ba'zi o'rinlarda boshqa ijodkorlarga ham murojaat qilingan tarzda qiyosiy-tarixiy tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natija va xulosalari adabiyotshunoslik va tanqidchilikda Ayudulla Oripov jodini o'rganish hamda shu orqali adabiy tanqid rolini ko'rsatish, tahlil qilingan she'rlarda davr g'oyasining yoritilishini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ish umumiy xulosalaridan o'zbek adabiyotshunosligi va tanqidchiligida shoir ijodining o'rganilishi, qolaversa, o'zbek tanqidchilari adabiy jarayonga munosabati masalasini tadqiq etishda nazariy manba sifatida foydalanish mumkin.

Ishning amaliy ahamiyati shu bilan belgilanadiki, uning natijalari oliy ta'lim muassasalarida, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, umumiy o'rta ta'lim maktablarida A.Oripov ijodini o'rgatish, shu bilan bir qatorda shoir ijodining ommalashishida tanqidchilikning rolini ko'rsatish, A.Oripov asarlarida diniy-ma'rifiy g'oyalarning badiiy talqin qilinishi bo'yicha ma'ruzalar o'qishda, amaliy va seminar mashg'ulotlar olib borish, kurs ishlari tayyorlashda qo'l keladi.

Ish tuzilmasining tavsifi. Dissertatsiya kirish, uch bob, umumiy xulosalar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, hajmi **XX sahifani tashkil etadi.**

I BOB.

ABDULLA ORIPOV SHE'RIYATINING G'OYAVIY-BADIIY XUSUSIYATLARI

Shoir she'riyatida lirik kechinma va badiiy ifoda

XX asr o'zbek adabiyoti tarixida 60-yillar avlodining alohida o'rni bor. Garchand mustabid tuzumning mafkuraviy zug'umlari badiiy ijod sohasiga o'z ta'sirini o'tkazsa ham, bir muddat hukm surgan iliqlik davrida adabiyot maydoniga yangi bir avlod kirib keldi. Bu avlod ijodida milliy o'zlikni anglash, Vatanni e'zozlash, milliy urf-odatlarni targ'ib-tashviq qilish, milliy his-tuyg'ularni tarannum etish tamoyillari yetakchilik qilar edi. Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Rauf Parfi, Halima Xudoyberdieva, Omon Matjon kabi shoirlar bu adabiy avlodning etkachi shoirlari sanaladi. Davrning tabiiy bir ehtiyoji bu avlod zimmasiga an'anaviy she'riyatni yangilash va badiiy tafakkurda teranlashuvdek ulkan bir vazifani yuklagan edi. Ijod ahli xalq diliga yaqinlashdi, xalqning dardu alamlariga sheriklik tuyg'ularini ilgari surdi; ramzlar vositasida o'z millatining tutqunlikdan ozod bo'lishdek ezgu istagini bayon qildi. Bu avlod vakillari ijodida xalqona poetik tafakkurga xos belgilar paydo bo'ldi. Abdulla Oripovning "O'zbekiston" she'ri, Erkin Vohidovning "O'zbekim" qasidasi, Omon Matjonning "Haqqush qichqirig'i" va boshqa shoirlarning qator turkumlari xalqimiz qalbida chuqur iz qoldirdi. Milliy fikr tarbiyasiga o'z ta'sirini o'tkazdi.

Ma'lumki, «Lirik kechinma epos va dramaga begona bo'lmaganidek, voqea-hodisa, savdo-mojoro ham lirikaga begona emas. Lirikada lirik kechinma hamisha ustun bir vaziyatni egallaydi. Shunday ekan, lirik kechinmaning o'zi nima? Nimalardan tarkib topadi? Mohiyatini nimalar tashkil etadi? Takomilga nimalar etkazadi? Bu savollar g'oyat muhim. Har bir davr, har bir adabiy avlod ularni ko'ndalang qo'yib, o'zicha javob berishga intiladi. Aynan lirikaning ijtimoiy-estetik qimmatini tayin etiladi. Shu

asosda birovlar talqinida lirika ijtimoiy-estetik taraqqiyotni olg'a suruvchi muhim faktor, kurash quroli bo'lib gavdalansa, boshqalar talqinida u mavhum sezgilar olami, tumanli xayollar dunyosi tusini oladi».¹ Lirik kechinma obrazdan farqli ravishda o'z tabiatidan kelib chiqib, ko'proq she'rning tug'ilishi va uning umumiy mazmuni, hissiy bo'yog'iga ta'sir etuvchi vositalardan biridir. Shuning uchun lirik kechinma misralar tarkibiga singdirilgan tarzda aks etadi. Bu haqida so'z yuritgan adabiyotshunos S.Meliev shunday yozadi: «Kechinma asl holatda yoqishi va yoqmasligidan qat'iy nazar, san'at asarida qayta tiklanar ekan, muqarrar badiiy zavq manbaiga aylanadi, ya'ni albatta yoqimlilik kasb etadi»². Lirikaning birinchi elementi kechinmadir. Kechinma esa nafaqat tuyg'u, his, xayol yoki fikr, tasavvur va ularning qorishig'i sifatida yuzaga chiqadi.

Men uzoq davrlar qaroqchi bo'ldim,
Shu yo'lda toblandi aql va yurak.
O'zimdanda o'tganin men o'zim bildim,
Sen nega qaroqchi bo'lmog'ing kerak.

Men yopiq qo'rg'onda yashadim qo'rqib,
Najot devoriga tirmashdim uzoq.
Sen nega dunyoga qaraysan hurkib,
Nega sen bo'lishing kerakdir qo'rqoq.

Qasamxo'r dunyoda kun ko'rmoq uchun
Aytmagan yolg'onim qolmadi biror.
Sen-chi hiylakorlik qilasan nechun,
Senga o'trik aytish nimaga darkor³.

¹ Adabiyot nazariyasi. Ikki tomlik. II tom. -T.: Fan, 1979. 240-bet.

² S.Meliev. Lirik fojeli // O'zbek tili va adabiyoti, 1991. №3. 7-bet.

Bu misralarda lirik kechinma orqali inson qalbidagi hissiyotlarni obrazli ifodalash jarayoni kuzatiladi. Bu o‘rinda shoir o‘ta nozik jihatlarni qalamga olgan. Ya’ni o‘z davrida kimlargadir yolvorib, iltijo qilib kun ko‘rganligini, bugun esa istiqlol maydonida haqiqatni aytib yashash muhimligini ta’kidlamoqda. Shoir har bir so‘zga olam-olam ma’no yuklay olgan. Ayniqsa, “qaroqchi bo‘ldim” birikmasida yanda bu boshqacha jilvalanadi.

Ma’lumki, dunyoda hech bir narsa o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi. Ushbu haqiqatni she’rga qo‘llasak, uning ham o‘z-o‘zicha dunyoga kelmasligi ma’lum bo‘ladi. Xo‘sh, she’rning ortida nima bor, u qanday tug‘iladi? «She’riyat – bu yashashning yorug‘ tantanasi, bu bizni goh-goh qamrab oluvchi hayot sururi; bu ehtiroslar halovati, titrog‘i avj nuqtasi, tuyg‘uning to‘lqini va bo‘roni, muhabbat toshqini, zavqu shavq rohati, dardkash xayollar toji, azob-iztiroblar lazzati, tunganmas ko‘z yoshlar chanqog‘i...».¹ Shu narsa ma’lum bo‘ladiki, she’r qanday-voqea hodisa ta’siri ostida yozilmasin, ma’lum tuyg‘u va kechinma ta’sirida dunyoga kelar, ularni badiiy ifodalaydi ekan. Ma’lumki, poetik asar birdan dunyoga kelmaydi. Tuyg‘u kechinmaga aylanishi uchun bir necha «bosqich»lardan o‘tishi zarur bo‘ladi. Shu o‘rinda lirik kechinma tabiatining eng birinchi xususiyati uning samimiyligidadir. A.Oripov ijodini sodda va samimiy deb, ta’riflash mumkin. Bu fikrimizni to‘laligicha asoslashga urinib ko‘ramiz. Darvoqe, tuyg‘u chin bo‘lmasa, asar badiiyati kemptik bo‘ladi. Bu hol she’rning ruhidan yaqqol seziladi. Shoir o‘z qalbidagi tuyg‘ular harakatini ba’zan anglab yetmasligi ham mumkin. Inson aqli unutib yuborgan hodisa yoki joyni, ko‘pincha insonning qalb xotirasi hech qachon unutmaydi:

Xaritaga boqsang,
Ko‘zing oldidan
Turfa mamlakatlar o‘tar birma-bir.

¹ Adabiyot nazariyasi. Ikki tomlik. 2-tom. –T.: Fan, 1979. 235-bet.

Qay biri kimgadir boshpana, Vatan,
Qay biri sajdagoh bo‘lgan kimgadir.

Mana Italiya, Dante diyori,
Tagor shuhratiga noil Hindiston.
Farzandlar o‘z yurtin nomusi, ori,
Bulbulim bor deydi har qanday bo‘ston².

- deb kuylaydi A.Oripovning lirik qahramoni. Bu misralarning voqeyiy mazmuni bizga shoir qalbini chulg‘agan dardli tuyg‘ular haqida tasavvur beradi. Ko‘pincha she‘r qalbidagi orzu-istaklar bilan real hayot voqeligi orasidagi ziddiyat yoxud uyg‘unlik ham turli mazmundagi kechinma-hislar, ifodalangan she‘rlar tug‘ilishiga sabab bo‘lishi mumkin. Lirikaning birinchi belgisi kechinmadir. Kechinma esa nafaqat tuyg‘u, xayol yoki fikr, o‘y, tasavvur va ularning qorishig‘i, balki bir vaqtning o‘zida ularning hammasidir. Shunday ekan, poetik asarning markazida kechinma turadi. U bizga shoir badiiy tafakkuri qanchalik yuksak va teran mulohazakor ekanligidan darak beradi. She‘rning bu kabi maydonga kelishida iste‘dod va badiiy mahoratga bog‘liqligini ham unutmasligimiz kerak. Shoir juda ko‘p kechinmalarni, yo‘qotishu topishlarni, ayriliq va hijron azobini, muhabbat iztiroblarini boshidan kechirgan bo‘lmasin, baribir iste‘dod va talant bo‘lmasa haqiqiy she‘r tug‘ilmaydi. Yuragida dardi bor insondan shoir chiqqanida edi, dunyodagi har bir inson o‘zicha, o‘ziga xos shoir bo‘lib etishardi. XX asr adabiyotida minglab shoirlar o‘tdi. Lekin shu bugunimizga kelib ulardan bor yo‘g‘i o‘n o‘n beshtasining nomi abadiylikka muhrlandi. Qolganlari esa asta-sekinlik bilan birin-ketin e‘tibordan, nazardan chekkaga chiqib qolmoqda. H.Olimjon, Oybek, Zulfiya, R.Parfi, E.Vohidov, U.Azim, M.Yusuf, Sh.Rahmon kabi betakror iste‘dod egalarining ijodi bunga yorqin

² O‘sha asar, 90-bet.

misoldir. Ushbu shoirlarning she'rlari abadiyatga muhrlandi. Bularning lirik kechinmalari tabiiy va samimiy, o'tkir va shafqatsiz, haqiqatparvar va ma'rifatparvarlik bilan sug'orilganligidadir. Shu o'rinda A.Oripovning she'riyati nima uchun tez fursat ichida ommaviylashib ketdi? Bunga xalqona ohangda yozilganimi yoki boshqa biron bir sababi bormi? Aslida ommaviy she'riyatning mazmuni shu kabi sodda va xalqonalik bilan o'lchanadimi? Yoki tuyg'ulari xuddi tog' bag'ridan sizib chiqayotgan shaloladek ta'sirchanmi? Shu kabi savollarga javob topishga urinar ekanmiz, A.Oripovning bunday natijalarga erishuvida xalqning dilida turgan dardni teran ilg'ab olganligida va Xudo bergan iste'dodi borligida ko'rinadi. Iste'dod tufayli shunday martabalarga, yuksaklikka erishish mumkin. SHoir har qanday mavzuda qoyilmaqom qilib she'r yoza oladi. Muhabbatni tarannum etadimi, Vatanni kuylaydimi, nima haqida yozmasin u qo'shiqqa aylanib, xalq diliga kirib boradi.

She'riyat asrlar davomida mohir san'at sifatida insonning ruhiy dunyosini kashf etishga intilib kelgan. To'g'rirog'i, poetik ifoda madaniyati odamzod orzu-istaklari, maqsad intilishlarini betakror estetik mezonda baholash garovidir. Shunday ekan, hamisha sir-sinoatlarga oshno nazm tabiatini tahlil hamda tadqiq etish kuchli ma'naviy ehtiyojlarni keltirib chiqaraveradi. Ayni paytda, mazkur xususiyat badiiyatiga ta'sir o'tkazadigan ichki va tashqi omillarni ilmiy asosda o'rganish, uni idrok etish hamda anglashga zamin hozirlaydi. Lirik tasvirni shakllantiradigan faktorlardan eng muhimi kechinma tabiati bilan chambarchas bog'liq. Shu o'rinda quyidagi satrlarda ham buni ilg'ab olish mumkin:

Jismimni ko'tarib turibdi tuproq,
Erning ustidaman, yo'q zarra nolam.
O'zi chorlar bir kun bag'riga, biroq
Mensiz qolganingda chidaysan, bolam.

Hay dunyo, o‘zingni bir pulga sotding,
Kalava topding-u uchin yo‘qotding.
Men kabi oxiri g‘aflatda qotding,
Mensiz qolganingda chidaysan, bolam.

Inson ezgulikdan topgay farog‘at,
Nima zarur unga zulmu qabohat.
Kimdir urishtirib, qilgaydir rohat,
Mensiz qolganingda chidaysan, bolam.¹

Bu o‘rinda lirik qahramon kayfiyati “chidaysan bolam” birikmasida yanada ohangdorlik kasb etgan. Ushbu “Chidaysan, bolam“ she’ri shoirning o‘z farzandiga emas, balki uni tushunguvchi insonga atalgandek go‘yo. Chunki insonni tushunishdan boshlanadi, aslida she’rni tushunish. She’r mohiyatida shunday ajib tahlillar borki, uni to‘laqonli shoirning o‘tlig‘ yuragidan chiqayotgan nolalar deb aytish mumkin. Negaki, bu erda shoir ko‘kka emas, o‘z yuragiga, borlig‘iga nola qilmoqda.

Lirik qahramonning botinini ayovsiz iztirobga solayotgan tuyg‘u uning oshiqligi, muhabbatiga talpingan va unga juda ko‘p ozorlar berganligiga iqror bo‘lib, unga yolborayotganligini his etish mumkin. «O‘ttiz yil davomida she’r haqida o‘yladim, uning ifoda shakllari, vositalari, prinsiplari, ruhi haqidagi fikrlar juda ko‘p marta o‘zgardi: she’r turmush o‘chog‘idan olingan laxcha cho‘g‘, hayotiy epizodga asoslangan, syujetli bo‘lishi kerak, deb she’rning bo‘lak turlarini tan olmay ancha yil yurdim; she’r yalt etgan oniy tuyg‘u, zavq-shavq tug‘yoni, uni faqat muzika janrlari bilan qiyos qilish mumkin, degan ruhda ham ancha vaqt ishladim; she’r hayot falsafasining essensiyasi, fikr, fikr, fikr! Fikrsiz poeziya yo‘q deb, anchagina biryoqlama

¹ O‘sha asar, 98-bet.

ratsionalistik she'rlar yozdim...», - deb yozadi iste'dodli shoir Asqad Muxtor. Darhaqiqat, she'riyat – murakkab jarayon. SHoir ijodini kechinma tabiatiga muvofiq uch guruhga ajratish mumkin.

Dunyo – Yaratganning jilvasigina, xolos. Undagi hech narsa haqiqiy emas, oynadagi aksni ushlab bo'lmaganidek, bu dunyoda ham aslga etib bo'lmaydi. Inson tug'ilish bilan fanoga tegishli bo'ladi, uning jismi ko'ra, eshita, nafas ola boshladi. Oynada aks etgan jisimsiz borliq ro'yo ekaniga ruh ko'zlarini jism qorachiqalari berkitgani sababdir. Ko'rinadiki, ko'rishga kerak bo'lgan narsa ko'rmas-likka sabab bo'ladi. Shoirni Yaratgandan boshqasi yolg'on ekani junbushga keltiradi, uning ruhi tiyiqsiz bir ishtiyoq bilan isyon ko'taradiki, bu uni Tangri sariga eltishi mumkin bo'ladi.

She'riyat so'z san'atining boshqa turlaridan o'zining nafisligi, his-tuyg'ularga boyligi, obrazlilik, badiiy bo'yoqdorligi va ta'sirchanligi bilan ajralib turar ekan, shu sababdan ham inson qalbining tub-tubidan otilib chiqayotgan tug'yoni, voqelikka bo'lgan ehtirosli, ba'zida esa murosasiz munosabatining ifodasidir. Lirik qahramonning murakkab, ziddiyatli, turfa xil to'lg'onishlarga, his-tuyg'ularga, ehtiroslarga boy bo'lgan qalbisiz she'riyat chinakam badiiyat namunasiga aylanishi mumkin emas. «Har bir yangi she'r – yangi bir hodisa. Demak, uning o'z tabiati, o'z kechinmasi, o'z obrazlar jilvasi mavjud. Shunday ekan, umuman she'riyatning barcha sehrli nozik qirralarini to'la qamrab olish mumkin emas».¹ Biroq shunga qaramay, badiiyatning shunday umumiy qonuniyatlari borki, ular ma'lum darajada she'riyat olamini tushunishga, idrok qilishga imkon beradi.

Bu adabiy avlod zimmasidagi mahobatli missiya zamirida “mayda gaplarni ko'tarmagay she'r” (A.Oripov) degan aqida, umuminsoniy g'oyalarni, o'zbekning milliy o'zligini anglashdek, xalqni erkinlikka, qolaversa, istiqboldagi istiqbol kunlariga hozirlashdek ulkan fikrlar mujassam

¹ Sarimsoqov B. Lirikada badiiy tafsil // O'zbek tili va adabiyoti. -1992. № 5-6, 10-bet.

edi. Abdulla Oripov fenomeni ana shunday adabiy muhitda tabiiy zarurat, “ehtiyoj farzandi” sifatida maydonga keldi.

“Badiiy asar bizning ko‘z oldimizga ruh va erkning oliy manfaatlarini namoyon etishi zarur”.¹ Hozirgi o‘zbek adabiyotining ulkan namoyandasi Abdulla Oripovning boy ijodiy merosi o‘zining teran mazmundorligi, nihoyatda serqirraligi bilan ajralib turadi. SHoir jahon va rus, o‘zbek mumtoz va zamonaviy she‘riyatining ilg‘or tajribalaridan bahramand bo‘lgan 60-yillar adabiy avlodi qatorida adabiyotga kirib keldi. Abdulla Oripov ilk izlanishlaridanoq xalq qalbidan o‘rin oldi, xalqimiz nazariga tushdi; milliy ruh xususiyatlarini, o‘zbek xalqi dilidagi orzu-armonlarni badiiy tasvirlab, inson ruhiyatini jami murakkabliklari bilan ifodalash yo‘lidan bordi. Bu esa uning xalqona poetik tafakkurining jozibali hosilasi sanaladi. Shoir asarlarini she‘riyat muxlislari, ilmiy-adabiy jamoatchilik mamnuniyat bilan qarshi olishdi. Ilk she‘rlari bilan she‘riyat osmonida “mitti yulduz” bo‘lib porlashining sababi ham shunda. Abdulla Oripov she‘rlarida shaxs va jamiyat ruhiyatini, olam va odam g‘am-tashvishlarini, orzu-umidlarini, baxt-saodatini kuylaydi. Shu boisdan ham shoir asarlarida ezgulik, adolat, go‘zallik singari umuminsoniy qadriyatlar talqini asosiy o‘rin tutadi. SHoir o‘z iste‘dodini millat va Vatan manfaatlarini uchun xizmat qilishga qaratadi. Xususan, insonsevarlik, vatanparvarlik g‘oyalari o‘zaro mushtaraklikda shoir ijodiyotining negizini tashkil etadi. Zero, Abdulla Oripov she‘riyati ona xalqi va Vataniga bo‘lgan otashin muhabbatning yorqin ko‘rinishidir. Ushbu jarayonda xalqona poetik tafakkur, milliylik ruhi badiiy-estetik pafos sifatida bo‘y ko‘rsatadi. Buning zamirida insonga muhabbat – insonparvarlik tuyg‘ulari yotadi. Zero, Abdulla Oripov she‘riyatida, barcha buyuk adiblar ijodida bo‘lgani kabi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unlashib, yaxlit bir butunlikni tashkil etadi. Millatning kelajagi uning o‘tmishi va buguni

¹ Гегель Г.В.Ф. Сочинения. Т.ХII. – М., 1938. – С.286.

bilan uyg'un badiiy idrok etiladi. Xalq dardini badiiy talqin etgan asarlar millatning yuksak ma'naviy intellektual madaniyatini o'zida mujassamlashtiradi; milliy va umumbashariy qadriyatlarni e'zozlash, himoya qilish va ulug'lash yo'lida kurashishga ilhomlantiradi. Rus adibi A.Ostrovskiy ta'kidlaganidek, "...xalq yozuvchisi bo'lish uchun xalqni yaxshi bilish kerak. Shu xalq bilan chambarchas bog'langan bo'lishi, uzviy birlashib ketishi kerak. O'z elini o'rganish-bilish badiiy talant uchun eng yaxshi maktabdir. Uni badiiy aks ettirish esa ijodiy faoliyat uchun eng yaxshi maydondir".¹

Xalqona poetik tafakkur tamoyillari negizini xalq manfaatlarini, dard-alamini va sururini, o'sha xalq istiqomat qiladigan muqaddas makon – go'zal Vatan ulug'vorligini teran, samimiy, sodda, mazmundor, falsafiy tarzda badiiy mahorat bilan aks ettirish tashkil qiladi. Xalqona poetik tafakkur asoslari badiiy adabiyotning jamiyatda ado etadigan ijtimoiy, ma'naviy-axloqiy vazifalari bilan chambarchas bog'liq, albatta. Shu ma'noda chinakam xalq shoiri sifatida Abdulla Oripov "xalqim", "ona xalqim" ta'birlarini qo'llashga, xalqqa shu tarzda murojaat etishga, shoirona tarzda xitob qilib hayqirishga o'zini ma'nan haqli sanaydi. SHoir "Yuzma-yuz" (1964) she'rida avval yulduzlarga murojaat etib, mening xalqimning kimligini bilmaysiz, u juda zahmatkash, halol, elda tinim bo'lishi mumkin, lekin mening xalqim tinim nima ekanini bilmaydi, "Shunday ishparastdir u munisginam", deb yozadi. Shoir "ishparast" degan yangi poetik so'z yasashi bilan birga "munisginam" deya xalqiga mehr-muruvvatini nazokat bilan ifoda etadi. So'ngra shoir davom etadi:

Men uni o'ylayman tun-kechalarda,
Ona xalqim, deyman, mehrim oqar jim.
Ko'zinga ba'zida ko'rinsa janda

¹ Островский А. Русские писатели о литературном труде. – Л., 1954. – С.558.

Ko‘nglim to‘lib ketar, ingrayman, xalqim...
Xalqim, moziy o‘tdi, tole ko‘rmading,
Pishirding o‘zingga benasib taom.
Kiygizding birovga, o‘zing kiymading,
Yulduzni kashf etib nom olding - avom!.¹

“Yuzma-yuz” o‘z davri, ijtimoiy hayotda bir muddat hukm surgan iliqlik davri jarayonida yozilgan she‘r. Unda shoirni xalq bilan yonma-yon, ruhan va vujudan birga tasavvur etamiz. Shoirning mehr-muhabbati, xalqining zabun ahvoli uchun ingrayotgani yaqqol ko‘zga tashlanadi. Shoir “istiqlol” (avvalgi variantida “kommuna” she‘rlarning yangi, tahririy variantlari alohida mavzu) bahona dilini to‘kadi; mustabid tuzum o‘zbek xalqini qay holatga solganini ro‘y-rost bayon etadi. Og‘zidan olov purkab turgan ajdaho komida turib xalq hayotiga oid haqiqatni ayta olish, tabiiyki, birinchi navbatda shoirdan jasoratni, his-tuyg‘ularni quyuq obrazlar mohiyatiga mahirona joylashni talab etadi. Yaqin o‘tmishda xalqimizning asossiz ravishda naqadar kamsitilgani va tahqirlangani erkka erishgach, istiqlol ne‘matidan bahramand bo‘lgan davrlarda barchaga ayon bo‘ldi. Holbuki, tarix sahnasidagi bu mudhish manzarani Abdulla Oripov o‘z vaqtida shoir ko‘zi bilan aniq ko‘rgan edi. Yuqoridagi she‘r xalqona sodda shaklda yozilgani uchun nihoyatda ta‘sirchan va samimiydir. Misralar mohiyatiga jam bo‘lgan zidlov, tuyg‘ularning o‘zaro qarshilanishida maydonga kelgan falsafiy mazmun va ohang shoir tafakkur tarzining o‘ziga xos sifat darajalarini, milliy ruh quvvatini ko‘rsatadi. Zero, bu holat badiiy matnning barcha qatlamlariga hayot bag‘ishlovchi badiiy-estetik tafakkur tabiatidan kelib chiqadi. Bu esa, o‘z-o‘zidan milliy ruh va ong-shuur orqali zohir bo‘ladigan milliy ma’naviyatning badiiy asar jismiga nechog‘lik singdirib yuborilganiga daxldor hodisa. Milliy ruh deganda ma’lum bir millatga xos ma’naviy-

¹ Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar. To‘rt jildlik. 1-jild. –T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2000. – B.62 (boshqa ko‘chirmalar ham shu manbadan olinadi va sahifasi qavs ichida berib boriladi).

axloqiy madaniyat belgilari: insof, halollik, haqgo'ylik, oriyat, vafo, or-nomus kabi ezgu xislat-fazilatlar ko'zda tutiladi. Bu bir. Ikkinchidan, ezgulik, adolat, go'zallik singari bashariy qadriyatlarni o'rganish va baholashdagi millat va Vatan manfaatlari badiiy tafakkur tabiatiga o'rnashgan bo'ladi. Demak, badiiy asardagi milliy ruh - ijodkorning xalq bilan aloqasi, xalq ommasining hayoti, kurashi, g'oyalari, hissiyoti va intilishlari, manfaatlari va maqsadlarining adabiyotdagi poetik ifodasidir. O'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan xalqona poetik tafakkur va milliy ma'naviyat tushunchalari o'zaro uzviy yaxlitlikka ega bo'lgan tushunchalardir. "Shaxs va millat ruhiyati ma'naviyat bilan tutash bo'lib, asosiy farqlaridan biri – ruhiyat murakkab voqelik sifatida o'zida ham rahmoniy, ham shaytoniy xislatlarni, ham fazilat, ham qusurlarni, ham tabiiy, irsiy, ham atrof-muhit ta'siridagi holatlarni aks ettirsa, ma'naviyat shaxsning, millatning insoniy fazilatlarini, uning qalbidagi ilohiy nur in'ikosini namoyon qiladi".¹ Demak, ijodkor talqinida ikki yoqlama ziddiyatli tabiatga ega bo'lgan ruhiyat va ma'naviyat tushunchalari bir vaqtning o'zida bir-birini taqozo qiladi: yana inkor ham etuvchi hodisalar sifatida badiiy ahamiyat kasb etadi.

Xalq donishmandligi donoligining she'riy misralar qatiga mahorat bilan singdirilishi ham xalqona poetik tafakkur tamoyillaridan sanaladi. Abdulla Oripov mutafakkir shoir sifatida xalq qalbini, ming yillar davomida o'zbek xalqi hayot tajribalaridan o'tib, ma'naviy qoliplashgan hikmatlar, maqollar, matallar, hikoyat va rivoyatlarni juda yaxshi biladi. SHoir xalqimiz yaratgan ma'naviy xazinaga, xalq qalbining diltortar ohanglariga shunchaki ergashmaydi; uning mazmun-mohiyatini to'la o'zlashtirib, o'z badiiy tafakkuri mezonlari, o'zi yashayotgan davr muammolari, hamnafas vatandoshlari va millatdoshlari ko'ngli bilan bog'laydi. Shoir xalqining istiqboli uchun qayg'uradi; o'zining hayot yo'lini, qismatini "xalq yo'liga

¹ Imomnazarov M. Milliy ma'naviyatimiz nazariyasiga chizgilar. –T.: Sharq, 1998. 168-bet.

tutash”gan holda bayon etadi. Soʻngra oʻz ona xalqiga boʻlgan ehtiromini shunday yozadi:

Seni, ona xalqim, sevaman jondan,
Sening tashvishingni tashvishim deyman.
Nima qilolardim? Foydam kam garchand,
Biroq, men oʻzimcha gʻamingni eyman (1-jild. 64-bet).

Oʻzbek xalqining yuksak maʼnaviy-axloqiy fazilatlarini oʻz tashvishidek badiiy taʼsirchan boʻyoqlarda betakror tasvirlashga erishadi. SHunday vaziyatlar boʻladiki, butun dunyo tashvishini oʻylaydi, oʻzi mansub butun bir xalq gʻam-tashvishlarini “togʻday ogʻir yukni” zimmasiga olib, “Qushday engil boʻlib yuradi shoir”. Tabiiyki, bu shoir qismati. Bu ham Abdulla Oripovning ijodkorlik taqdiridir. Shoir ruhan, maʼnan, jisman oʻzini bunyod etgan xalq bilan, kindik qoni toʻkilgan Vatan bilan birga his etadi. Ortiqcha soʻzamollik, nooʻrin gʻiybatu mashmashalar unga ortiqcha.

Chinor soyasidan bahramand boʻlib,
Turfa xil ertaklar toʻqimoq oson.
Oʻzing ham ertaning tashvishin qilib,
Qaydadir bir nihol ekdingmi, Inson (2-jild, 268-bet).

Inson qalbini goʻzallashtirish, insonni komil koʻrish, “ertaning tashvishi” – shoirning bosh tashvishidir. Shoir anglab etgan hikmat shuki, oʻtmish turfa xil, bugun oʻtib bormoqda. Xalqimiz tomonidan qurilgan betakror obidalardan, yaratilgan asarlar va umuman barcha maʼnaviy-moddiy qadriyatlardan bahramand boʻlish oson ish. Tayyor oshni hamma eydi. Shoir aytmoqchi, deylik qachonlardir ajdodlar tomonidan ekilgan va etilgan chinor soyasida huzurlanib oʻtirish, boringki, birovga gap oʻrgatish, boshqacha aytganda, ertaklar soʻylash hammaning ham qoʻlidan keladi. Biroq kelajak uchun, kelajakdagi shu ulkan yoʻldan oʻtadigan yoʻlovchilar tashvishini chekib, erta bir kun bahaybat chinor boʻlib etishishini oʻylagan holda “bir

nihol ekdingmi”, degan bag‘oyat o‘rinli va hamma zamonlar uchun muhim bir savolni qo‘yadi. Inson o‘ylaydi. Zeroki, bu to‘rtlikdagi hikmat, hayotning turfa sohalariga ham mos keladigan dono fikr xalq bisotidan olingan, albatta.

Abdulla Oripovning xalqona poetik tafakkurida donishmandlik, faylasuflik shoir ijodining barcha mavzu ko‘lamida etakchilik qiladi. SHoir uchun eng tabarruk tushuncha – Vatan. Ona Vatan xususida she‘r bitmagan shoir kamdan-kam topiladi. Xususan, Abdulla Oripov ijodida Vatan mavzusi etakchilik qiladi. Akademik M.Qo‘shjonov ta’kidlaganidek, Abdulla Oripov “ustozlaridan saboq olib, ularni takrorlamagan holda” Vatan to‘g‘risida jozibali she‘rlar bitdi. Zotan, shoir ko‘ngli o‘z xalqi va ona Vataniga bo‘lgan mehr-muhabbatga to‘liqdir. She‘rlar ana shu go‘zal ko‘ngilning suvratlari. SHoirning o‘zi aytmoqchi:

Vatandan ayri ko‘ngilni bilingki, yayratib bo‘lmas,

Baayni bandi bulbulni chamansiz sayratib bo‘lmas.

Bevatanlikda ko‘ngil aslo yayramaydi. Shoir bu holatni Alisher Navoiyning mashhur ruboiysida aytilgan “Oltun qafas ichra gar qizil gul butsa, Bulbulg‘a tikandek oshiyon bo‘lmas emish” misralariga hamohang tarzda bulbul obrazi vositasida bayon qiladi. Bandilikda, qafasda bulbul sayramaydi. Bulbul uchun qafasdan ko‘ra tikanli oshiyon muhim. Bulbul uchun chamandan ayro bandilik emas, balki erkinlik, kenglik muhim. Bu hikmatni yozish uchun, albatta, ulkan shoirona iste‘dod va qalb zarur. Abdulla Oripov boshqa bir sakkizligida to‘g‘ridan-to‘g‘ri hikmatning o‘ziga ikki bor urg‘u beradi:

Dunyoda ajib bir hikmat mavjuddir:

Agar bo‘lmay desang baxtingdan judo,

Agar yashay desang rozi bir umr,

Vataning tinch bo‘lsin, Vatan avvalo.

Dunyoda ajib bir hikmat mavjuddir:
Agar bo‘lmay desang Vatandan judo,
Munosib bo‘la bil unga bir umr,
Vatanga joningni qilolgin fido (2-jild, 267-bet).

Vatan ma'lum bir xalqning mavjudlik belgisi. Shu bois, Vatan mavzusiga, Vatan qayg'usiga ijodkor xalq ham, xalq ichidan chiqqan ijodkor ham beparvo-loqayd bo'la olmaydi. Hikmat shuki, vatandan judo bo'lish – bu baxtdan judo bo'lishdir. Vatan tinchligi eng ulkan saodat. Yana bir ta'kidlangan hikmat shuki, lozim bo'lsa, Vatan uchun jon fido qilish ham baxt. Abdulla Oripovning bir qator she'rlarini tahlil qilar ekan, adabiyotshunos Abdulla Ulug'ov: “Shoir barcha mavzudagi she'rlarida ma'naviy go'zallik, insoniy barkamollikka da'vat etadi”, degan haqli fikrni yozadi.¹ Zero, shoirning xalq va Vatan taqdiriga oid she'riy kashfiyotlari ham bu fazilatdan mustasno emas, albatta.

Badiiy mukammallik va falsafiy teranlik

Xalqona poetik tafakkurga xalqning yumoristik, beozor kulgisi xos. Abdulla Oripov aksar she'rlarida sarlavhadan keyin “hazil” degan aniqlikni keltirib o'tadi. Masalan, “Suv”, “Nasihah”, “Turmush tashvishlari”, “Tanishlar” va boshqa qator she'rlarida shu xususiyat ko'zga tashlanadi. Tabiiyki, shoir hazili zaminida engil va beozor kulgi yotadi. Maxsus o'z syujet va kompozitsion qurilishiga ega bo'lgan “Hangoma” (1971) sarlavhali voqeiy she'ri esa xalqona ruhda yaratilgan asarlarining eng sarasi sanaladi.

“Hangoma” she'ridagi har bir obraz, har bir detal milliy xarakterning badiiy tajassumi uchun to'laqonli vosita sifatida yuzaga chiqadi. She'r badiiy va kompozitsion jihatdan pishiq. U to'la ma'noda o'zbek xalqiga xos shodiyona marosimlardan biri - to'y bilan bog'liq kulgili bir voqea asosiga

¹ Ulug'ov A. Asl asarlar sehri. –T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2007. 130-bet.

qurilgan. She’rda tasvirlanishicha, to‘y-tomosha uchun o‘ta noqulay bo‘lgan qishning sovuq bir kunida qo‘shni ovuldan to‘y xabari keladi.

O‘zbeklarga xos bo‘lgan qadimiy urf-odatga ko‘ra, aytilgan joyga albatta borish lozim. Shu sababli ob-havoning noqulayligiga qaramasdan, ikki birodar chol to‘yga jo‘nashadi: “Birovi otga mindi, birovi mindi eshak”. Ikki chol gurungga qiziqib, yo‘ldan adashib ketganini sezmay qolishadi. Kech bo‘lib, osmonda yulduzlar charaqlay boshlagach, o‘zlarining adashib qolishganini anglab, otning boshini orqaga burishadi. Shunday qilib, orqada “ergashib” borgan ot qaytishda yo‘l boshlovchi bo‘lib qoladi va o‘z uyini topib keladi. She’r vaziyat tasviri bilan boshlanadi:

Qor yog‘ardi bo‘ralab,
Qolishmasdi dovuldan.
To‘yga aytib ketishdi
Shundoq qo‘shni ovuldan (1-jild, 20-bet).

Vaziyat, holat tasviri ikki qismdan iborat. Oxirgi ikki satr o‘zbek xalqi hayotida tez-tez uchrab turadigan oddiy hodisa – to‘yga aytish haqidagi xabar. Xursandchilik mujdasi. Hamma gap ana shu xursandchilik haqidagi xushxabarning qanday sharoitda aytilayotganida. Dastlabki ikki satrda ifodalangan “sharoit” tasviri keyingi ikki satrda ifodalangan xushxabarga mutlaqo to‘g‘ri kelmaydi. Tabiiy sharoit bilan xushxabar o‘rtasidagi bu ziddiyat she’rning bosh konfliktini hosil qiladi. Bu konflikt syujetni harakatga keltirib, asar so‘ngigacha o‘quvchi diqqatini tarang tutib turadi. Asarning tuguni ham shu to‘rtlikda mujassam va juda mustahkam qal’aga o‘xshaydi, ya’ni u asar oxirigacha echilmaydi. Bu - yumoristik tugun.

Ushbu dastlabki to‘rtlikdagi yumoristik pafos – kulgili vaziyat shu darajada quyuq, shu darajada kuchliki, bu jihatdan uni latifa yoki hangoma janrlariga oid mustaqil kulgili asarlar bilan tenglashtirish mumkin. Mabodo, askiyachilar davrasida ushbu to‘rtlikning o‘zi o‘qilsa, uni mustaqil kulgili

asar sifatida qabul qilaverishadi. Chunki to‘rtlikdagi ziddiyat yumoristik. Jiddiy asarlarda bunday ziddiyatga yo‘l qo‘yilmaydi. Bu – echimi yo‘q ziddiyatdir. She’rda aytilishicha, to‘yga otlangan ikkala chol yo‘ldan adashib ketadi. Mabodo ular to‘yxonaga etib borganda asar o‘zining yumoristik mohiyatini yo‘qotgan bo‘lardir. Gap shundaki, ular aynan adashishlari lozim. Bu – asarning bosh badiiy maqsadi. Ikki chol to‘yxonaning yo‘lidan adashib ketgan bo‘lsalar ham, shoir mo‘ljallab qo‘ygan yo‘ldan, ya’ni “badiiy yo‘l”dan chiqmasdan, “yumoristik manzil”ga omon-eson etib keladi. Chollar o‘z maqsadlariga etolmagan bo‘lsalar ham, shoir o‘z oldiga qo‘ygan badiiy maqsadga to‘la etishadi.

Yuqoridagi tahlillar va mulohazalar Abdulla Oripov ijodiy yo‘lining mazmuni va ma’naviy olamiga, she’riyatining go‘zalligi va rang-barang ohanglariga xalqona poetik tafakkur nuqtai nazaridan qarash samarasidir. Zeroki, bu tushuncha zamirida insonsevarlik, vatanparvarlik, milliylik, zamonaviylik va umuminsoniylik kabi tamoyillar o‘zini yaqqol namoyon etadi. Bunda, ayniqsa, O‘zbekiston, ona xalq, Vatan hurligi va ozodligi hamda farovonligi mavzusini da’vatkor ruh bilan kuylaganligi milliy madaniyatimizda Abdulla Oripov “fenomeni”ni vujudga keltirgan omillardan biri bo‘ldi.

Abdulla Oripov xalqimiz hayoti va tarixi, moziyda va yaqin o‘tmishda yashab o‘tgan buyuk siymolar, qatag‘on qurbonlari bo‘lgan shaxslar, ulug‘ adibu shoirlar haqida, bunyodkorlik ishlari bilan band bo‘lgan odamlar, millatimizning bugungi va istiqboldagi qadrini baland ko‘tarishga, milliy o‘zlikni anglab olishga, milliy ruhiyatni poklashga da’vat qiluvchi she’rlar bitdi. U o‘zining shaxsiy dardini millatniki emas, balki millatning dardini o‘ziniki deb bildi.¹

¹ Oripov Abdulla. Ko‘rgan-bilganlarim // Tanlangan asarlar.1-jild. –T.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 2000. 12-bet.

Abdulla Oripovning yuqoridagi she'riy asarlari tahlilidan uning ijodiga xos donishmandlik, Vatan taqdiri uchun kuyinish, xalqona ruhiyat tasviridagi samimiyat, his-tuyg'ularni qisqa-lo'nda ifoda etish kabi xususiyatlarni xalqona poetik tafakkurga xos tamoyillar sifatida baholash mumkin. Bu xususiyatlar zamirida esa millatparvarlik, vatanparvarlik, insonparvarlik va umuminsoniy qadriyatlarni e'zozlash kabi fazilatlar mujassamdir.

Ulug' faylasuf Gegelning "Homer asarlari bo'yicha yunon xalqi ruhini o'rganish mumkin", – degan qadrli fikri mavjud. Haqiqatan ham, muayyan millat adabiyotining yirik vakillari ijodida ular mansub bo'lgan millatning ruhi qabariq holda yorqin ifodalangan bo'ladi. Zero, tafakkur kengligi, falsafiy mushohada qamrovi darajasi hamda badiiy idrok yuksakligi xalq ruhidan oziqlangan taqdiridagina yuksak poetik qudrat kasb etadi.

Darhaqiqat, A.Oripovning XX asrning 80-90- yillarida yozilgan bir qator she'rlari jiddiy mavzularda, haqiqiy inson ichki dardini ifoda etganligi bilan 2010- yilda yaratilgan she'rlaridan tamomila farqlanib turadi. Bunga istiqlol bergan cheksiz imkoniyatlar bir omil bo'lsa, ikkinchi jihatdan shoir hamon izlanishdaligi bilan bog'liqdir. U tinimsiz yozadi. SHu tinimsiz yozishlarining hech biri e'tibordan chetda qolgan emas. Istiqlol yillarida bayramlarda yangragan qo'shiqlar muallifi A.Oripovdir. Bunday o'ylab qaralsa, Vatan haqida she'r yozish juda mushkul ish. Negaki, Vatanni jonidan sevmagan insonning o'zi yo'q. Ammo qanday sevis va shu sevgini qanday izhor etishdadir. Chunki Vatanning bo'y bastini, orzu va armonlarini to'rt banda tasvirlash, chizishga urinish har doim muvaffaqiyatli chiqavermaydi. Sabab Vatanni tariflashga til ojizlik qiladi. H.Olimjon haqli ravishda ta'riflaganidek «O'xshashi yo'q bu go'zal bo'ston, Dostonlarda bitgan guliston...». Shu sababli Vatan haqida yozish har bir shoir orzusi. Buning isbotini quyidagi misralarda ham to'la his etishimiz mumkin:

Ko'rinadiki, ma'naviy-axloqiy go'zallikni kuylash hayotdagi,

jamiyatdagi, odamlar tabiatidagi ulug‘vorlik, buyuklik singari xislat – fazilatlarni tasdiqlash uchun xizmat qiladi. Lirik qahramon qalbi va kayfiyatidagi rangin tusni ifodalash uchun shoir tabiat bo‘yoqlariga murojaat qiladi. Shu boisdan ham A.Oripovning obrazlari va tasviriy vositalarida ohang, hid, rang, musiqa jilvalarini, ayniqsa, ko‘plab uchratamiz. A.Oripov ijodida shaxs va jamiyat psixologiyasini vobasta aks ettirish etakchilik qiladi. Bu borada ijtimoiy-falsafiy tahlil poetik tadqiqotchilikda bosh yo‘nalishni tashkil etadi. Bu esa o‘z navbatida shoir she‘riyatining mavzu-masalalar ufqi kengayib, usluban boyib borayotganligini ham ko‘rsatadi. Ijtimoiy hamda ma‘naviy-axloqiy masalalarni badiiy idrok etishda achchiq istehzo, falsafiy mushohadakorlik, publitsistik da‘vat, o‘ychan ruhiy kechinmalar, engil yumor, hazil ohanglariga singdirilgan fojeiy haqgo‘ylik balqib turadi. Bular o‘z navbatida shoir she‘riyatining janr tarkibi tobora boyib borayotganligini tasdiqlaydi:

Ossalar daqiqa umringga yakun,
Otsalar – daqiqa umringga yakun.
El-yurt qarg‘ishidan asrasin Xudo,
Avlod-ajdodingga etgay u butun.¹

Jiddiy ma‘nolar qatiga singdirilgan achchiq istehzo tagidagi ma‘nodan bilish mumkinki, shoirning fikrlarida tiniqlik, mubolag‘aning bo‘rtib ko‘rinishi tabiiy chiqqan. Aslida ham shunday bo‘lsa, kitobxonning tasavvurida boshqacha kayfiyat zohir etadi. A.Oripovning bunday satrlari yig‘lab-yig‘lab o‘qiladi. Jiddiy haqiqat tariqasida qabul qilinishi ham mumkin, ammo uning mohiyatida shaxs va jamiyat, manfaat va g‘arazgo‘ylikning tamomila zamonaviy ko‘rinishi aks ettirilgan. Ushbu satrlarda shubhasiz, lirik kechinma tabiati va lirik qahramon o‘y-fikrlarining yorqinroq ifoda etilganini asoslaydi. Zero, shoirlik odamning ixtiyoridagi

¹ O‘sha asar, 118 –bet.

holat emas. Ijod necha vaqtdan buyon (balki kunlar, balki yillardir) borlig'ini to'ldirib yurgan darddan o'zini xalos etish, bo'shalish ehtiyojidir. Ruhiga tug'ilmasidan oldin urug'i tashlangan ilohiy tuyg'uni so'zga ko'chirish hammaning ham qo'lidan kelavermaydi. Ba'zilar umrining oxirigacha buni eplay olmay o'tib ketadi. Ayrimlari esa tuyg'uning zalvorini ko'tarolmay, azoblarda qoladi. Iste'dod egalaridagi o'zidan qoniqmaslik hissining ildizi ana shu erda. Asl ijodkorga hamisha yozilganidan mukammalroq, go'zalroq va nozikroq bitishi mumkinday, qo'llagan so'zlari tuygan tuyg'usiga qaraganda rangsizday ko'rinaveradi. SHuning uchun she'r va shoir o'rtasida murosasiz kurash abadiy davom etadi.

She'riyatda lirik kechinma tabiati xususidagi fikrlarni Abdulla Oripov ijodi asosida tahlil qilishga harakat qilindi. Shu mulohaza va keltirilgan fikrlarga tayanilib, ushbu bob bo'yicha quyidagicha ko'rinishda xulosaga kelindi:

- shoir she'riyatida lirik kechinma ko'ngilning bir lahzalik tasvirini bersa ham bu holat poetik taassurotning oniyligini bildirmaydi. Aksincha, poetik taassurotlarni umumlashtiradi.

- Abdulla Oripov she'riyatida aql va tuyg'u, fikr va tushunchaning o'zaro birligi turfa xil darajada aks etgan.

- hayot voqeligi hissiy kechinmalar orqali lirik qahramonga singdiriladi.

- shoir she'riyatidagi lirik kechinmaning mazmuni she'rning barcha unsurlariga o'z ta'sirini ko'rsatganligi kuzatiladi.

- lirik kechinma orqali shoir she'riyatidagi g'oyalar yanada teranroq o'z aksini topgan.

- lirik kechinma she'riyatning asosi ekanligini shoir she'riyati misolida yanada teranroq anglash mumkin.

II BOB.

ABDULLA ORIPOV SHE'RIYATIDA POETIK YANGILANISH VA MA'NAVYIY-AXLOQIY MUAMMOLAR TALQINI

Shoir she'riyatida umuminsoniy qadriyatlar talqini

Barchamizga ayonki, shaxs taribiyasiga kirishgan jamiyatni uzoq masofaga yugurayotgan sportchiga qiyoslash mumkin. Sportchini oldinda mashaqqatlari evaziga olinajak g'alaba kutmoqda. Unga etishish uchun sportchidan mehnat bilan birga san'at va professionallik talab etiladi. Estetika va falsafa fanlarida, adabiyotshunoslik va dinshunoslik ilmlarida shaxsni avvalo, insonlik darajasiga ko'tarilgan zot deya ta'riflanadi. Biroq u odamlardan ayrilib, tarkidunyo qilgan zot emas ekan. Shaxsning ozodligi uning ruhiyatida. Darvoqe, uning ruhi, fikri hur bo'lganligi bois doimo harakatdadir. Shaxs har qachon adolat tomonida turib kurashishga intiladi. U ezilgan xalqning ozodligi yo'lida jang qilganidek, o'z millatining o'zgalar ustidan hukmronlik o'tkazishiga ham rozi bo'lmaydi. SHaxs o'z xudbinlik qobig'ini yorib chiqqan zot hamdir. U faqat o'zinigina o'ylashdan nihoyat uyalgan, o'zgalar to'g'risidagi tashvishga esa ehtiyoj seza boshlagan kishidir. Shaxs yaxshilik qilib, baliqning bilish-bilmasligidan qat'i nazar daryoga tashlab ketaverishi mumkin. Zero, uning karami o'zgalar maqtoviga muhtoj emas. Shaxs o'zini o'zi tanqid qiladi, ayovsiz tanqid qiladi, shafqatsiz jazolaydi. Shunday ekan, adabiyotimiz tarixida shaxslar qiyofasidagi zotlar bo'lganidek ibrat olsa arzigulik shaxslar bo'lgan. Shoirlar butun bir millat yo'lini o'zgartirib yuborgani ayni haqiqatdir. Uning da'vatida esa minglab, miliyonlab taqdirlar qismati mujassam bo'ladi. Shoirlar dunyoni boshqacha tasavvurda ko'radi. Ezgulik va yaxshilik bilan harakatda bo'ladi. Ko'ngil pokligi, ruhiy xotirjamlik, millat istiqboli yo'lida jonfidolikni talab etadi. Va shunday yashamoqni isbotlaydi, o'rgatadi. O'zbek adabiyotining hali hanuz

dillarni hayajonga solib kelayotgan shoiru adiblari borki, ayni XX asr adabiyotidek porloq, kelajak sari talpingan zotlar boshqa davrlarda juda kamdan kam topiladi. Ayniqsa, Qodiriy, Cho‘lpon, Oybek, Qahhor, H.Olimjon, Zulfiyaxonim, Mirtemir, O.Yoqubov, P.Qodirov kabi haqparvar va millatimiz yorqin yulduzlari borki, endigi adabiyot uchun hali hamon asos va chuqur ibrat maktabi bo‘libgina qolmay, mustaqillik davri yoshlarini ham shunday baxtiyor tuyg‘ular ila kamol topishida kamarbasta, fidoyi ustoz bo‘lib kelmoqdalar. Baxt va shodlik kuychisi Hamid Olimjonning yuzlab dilbar she‘rlari o‘sib kelayotgan shoirlar ijodiga katta ta’sir ko‘rsatmoqda. Buning natijasida A.Oripov, E.Vohidov, Sh.Rahmon, U.Azim, X.Davron kabi o‘nlab shoirlar etishib chiqdi. Bu avlod ijodida aynan sodda va samimiy ohang, satrlar borki, buning ildizlari yuqoridagi shoirlar ijodiga borib tutashadi. She‘riyat yangilanishlar og‘ushida. Yangilikka tashna insonning qalbiga yorug‘lik, ertangi kunga umid bag‘ishlaydi. Binobarin, Abdulla Oripov she‘riyatini negadir istiqloq davrida salgina jo‘nashdi, soddalashdi deya, elka qisadiganlar bordir, lekin uning mohiyatiga teran nazar tashlagan insonda boshqacha kayfiyat zohir bo‘ladi:

Qadimiy ertaklarda
Ta’riflashib dunyoni,
Tilga ko‘p olishadi
Uch boshli ajdahoni.

Aslida ajdahoga
Uchta bosh nega kerak?
O‘ljani yutsa biri
Ikkovi poylar sergak.

Inson ajdahoga emas,

Bittagina boshi bor.

Barcha savdoni unga

Sig‘dirmoqligi darkor...¹

«Shoir lirikasida qahramonning ruhiyatini ochishda, ko‘ngil nidolari tasvirida majozlar, ramzlar yetakchi badiiy vositaga aylanadi. Shoir shaxs erki, millat ozodligi va ona-Vatan mustaqilligi g‘oyalarining ko‘ngil nidolarini ramzlar tiliga ko‘chiradi. Shoir she‘riyatidagi psixologizmni lirik qahramon ong-tafakkurida nurlangan, tagi buzilmagan o‘y-fikrning holatlar, kayfiyatlar tarzidagi tasvirini, tabiat, ijtimoiy voqelik va hayot hodisalari ta‘sirida ko‘ngilda tug‘ilgan tuyg‘ular to‘foni manzaralari tarzida anglash joiz.

Shoirning qalbini larzaga solayotgan og‘riq chin ma‘noda o‘zligini anglash uchun talpinayotgan shaxs tiynatini tasvirlaydi. Shaxs ham barkamollik istab, dunyoning sirini tushunmoq payida eziladi, sitiladi. Dunyoning bebaqoligidan xavotirlanadi. Ezgin savollar iskanjasida qovuriladi. «Lahzalik sevinch»ni anglagan inson tiynatida, «lahzalik visol»ni ham teran idrok etadi. Bu haqda «to‘la to‘kis, kamchiliksiz, armon va afsussiz kun o‘tishini, hech bir iztirob chekmagan, usiz o‘tmagan kun yo‘q»ligini nozik kuzatish bilan ta‘sirli qilib ifodalaydi. Bu esa shoirning hech kimdan yashirmagan siri, qalb dardi yo‘qligidan nishonadir. Uning lirik qahramoni o‘zining shaxsiy kechinmalarini qoralab, o‘zigagina tegishli narsalarni birovga aytib berayotgandek maydonga chiqadi. Ya‘ni shoirning qalbi ochiqdan ochiq bizga yuzlanadi. Savol nigohi ila ko‘ngilni zabt etgan satrlari bilan sehrlaydi, hayajonga soladi, butun murakkabligicha mahliyo aylaydi. Ana shu oraliqda shoirning ham, o‘quvchining ham samimiyatiga putur etmaydi. Abdulla Oripov «yara»lari ochiq shoirdir. U hech bir yashirishni, o‘quvchisidan darig‘ tutgan narsasi yo‘qligini shu kabi satrlarida

¹ Oripov O. Menga xush xabar ayt. –T.: Sharq, 2009. 56-bet.

ham to‘laligicha ilg‘ash mumkin. Shunday ekan, shoirlik shaxsini hamisha saqlashga, yangi-yangi ma‘nolar kashf etishga o‘zini bag‘ishlaydi. Bag‘ishlamoq esa, adabiyotda jonfidolikka aylanadi. U ham boshqalar kabi azob bilan yashay boshlaydi. Azoblar ichra to‘lg‘onadi, qiynaladi, iqrorlarini o‘quvchilariga ulashadi. Dardchil satrlari ila kitobxonga borlig‘ini tuhfa etadi. Haqiqat va adolat tarannum etishni o‘ziga g‘urur va burch deb biladi. Unga Vatan ham, suyukli yor ham, ona ham do‘stu birodarlar ham, yaproq va daraxtlar ham birday azizdir. Ana shu azizlikning qadrini ham his eta oladi. Qolaversa, shuni o‘quvchisiga tushuntiradi. XX asrning yirik psixologi Karl Yung «O‘zi shaxs bo‘lmay turib, kishining shaxs tarbiyalashi mumkin emas»¹ deganidek, tarbiyalanuvchining o‘zi shaxs yuksakligiga ko‘tarilgan zotlar va ularning asarlari bilan tanishishi favqulodda ijobiy natijalar berishi mumkin. Buning natijasi quyidagi she‘rini tahlil etishni ma‘qul topdik:

Men muhit tomonga yuzimni bursam,
To‘rt fasl bir joyda jam ko‘rinadi.
Bunda baxti qaro kuylaydi xurram,
Baxti raso dilda g‘am ko‘rinadi.

Uzoqni ko‘zlagan otliqni ko‘rdim,
Qismati eshakka bog‘liqni ko‘rdim.
Muhabbatdan dili dog‘liqni ko‘rdim,
Kulsa ham ko‘zida nam ko‘rinadi

Besamar arzlarda umri xazonlar,
Befoyda bahslarda umri xazonlar,
Behuda darslarda umri xazonlar
Qoshida ming yillik sham ko‘rinadi.

¹ Hamdamov U. Badiiy tafakkur tadriji. Monografiya va maqolalar. –T.: Yangi asr avlodi, 165-bet.

Shoirning bezovtaligi nimada? Shu sodda misralarda yashiringan uning qalb va hayot falsafasi nimlarni ifoda etmoqda? San'at-chi? Samimiyat-chi? Bugunning g'amini o'ylab, kechasini unutib, ertasini o'ylamaydigan insonning ahvol – ruhiyasi chizilganmi? Umrning mazmunli-yu, ma'nosiz lahzalarini qanday tushuntirmoqda? Muhabbati-chi? Bu kabi o'nlab savollarning javobi esa har bir misra bag'rida yuz ochib turmayaptimi? Shaxslik xislatini isbotlayapti. Ifodalayapti. Shunday ekan, shoirlar qalbidagi yuzlab qismatlar yashiringani, ayni haqiqat ekanligi emasmi, shu satrlarda mujassamlashgan. Abdulla Oripovning qaysi she'rini olib, o'qib ko'rmaylik uning yoniq chehrasi, o'ychan qiyofasi, bezovta ruhiyati aks etgan yuzi ko'z oldimizga keladi. Unday bo'lsa shoirning eng buyuk g'ami nima ekan, buni o'sha samimiy satrlarda ilg'ab, tushunib bo'ladimi? Ha, degan javob keladi tilimizga. Sababi u qanchalik ochiq yuz chehrali ekanligi, bu ham mayli dilidagi taskin izlayotgan lirik qahramon siz va biz yoki barchamiz ekanimiz ayonlashadi. Shuning uchun U.Normatov qayd etganidek: «Fikrni, asar g'oyasini o'quvchiga sodda, tushunarli qilib etkazish orqali hayot voqealarini, inson kechinmalarini yorqin tasvirlay olish san'ati har qanday ijodkor mahoratining darajasini ko'rsatuvchi asosiy omillardan biri»¹, - ekanligiga urg'u beradi.

Abdulla Oripov lirik izlanishlarida badiiy tasvir vositalaridan o'xshatish va sifatlashga juda ko'p murojaat etadi. Adabiyotshunos olim H.Umurovning «Adabiyotshunoslik nazariyasi» nomli darsligida o'xshatish haqida quyidagicha ta'rif beriladi: «O'xshatish – teshbeh («ar. o'xshatish») muayyan bir predmet, hodisani aniq tasavvur qilish uchun uni boshqa tanish bo'lgan predmet, hodisalarga solishtirishdir. O'xshatishlar «dek», «day», «larcha», «o'xshash», «xuddi», «simon», «deganda», «tahlit», «yanglig'», «misli», «go'yo» kabi qo'shimchalar, leksik vositalar, ko'makchilar yordamida

¹ Normatov U. Ijodning qo'sh qanoti. –T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1981. 5-bet.

yaratiladi»². Binobarin, ushbu fikrlarni amaliyotga tadbiiq etganda masala mohiyati yanada oydinlashadi. Shoir izlanishlarida o‘xshatishlar alohidalik, masalan yorning chehrasini gulga o‘xshatgan shoirlar ko‘p, ammo uni yanada ta’sirliroq, jarangliroq chiqishi uchun boshqa bir atamani ishlatish kerak. Bu esa shoirning hayotni va so‘zni qanchalik o‘rganganligi, izlanganligidan, chin iste’dod egasi ekanligidan darak beradi. Shoir izlanmas, quruq satrlarni so‘zlar bilan to‘ldirar ekan, bular o‘quvchi qalbida uzoq vaqtlargacha aks sado, taassurot qoldirolmaydi.

Abdulla Oripovning Vatan haqidagi she’rlarida bunga bot-bot murojaat etishining shohidi bo‘ldik. Jumladan «Iymon» she’rida ham bu kabi badiiy san’atlarni uchratish mumkin:

Qanday ko‘kararding, aytgin, birodar,
Agar Vatan degan bo‘ston bo‘lmasa.
Yuksalarming yo tog‘larga qadar,
Tepangda cheki yo‘q osmon bo‘lmasa.

Zaminda mavjuddir turfa xil jonzot,
Biri o‘rmaydi, birida qanot.
Mukarram atalmas inson degan zot,
Qalbida zarracha iymon bo‘lmasa.

Baribir g‘alati qavmdir bashar,
Bir umr nafsig qul bo‘lib yashar.
Haqqa yetishardi, yo‘lida gar
Hamrohi hazrati Shayton bo‘lmasa.

Ma’lumki, badiiy san’atlar poetik fikrni chiroyli, ta’sirchan ifodalash uchun xizmat qiladi. Shu sabab shoirning badiiy kashfiyotlari uning

¹ Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. –T.: 2004, 162-163-betlar.

she'rlarida she'riyat ilmidan xabardor odamlar uchun juda oson tuyuladi. Ammo kitobxonda esa bu hol kuzatilmaydi. Unga ta'sir etsa, ko'nglidagi savollarga bir qadar javob topa bilsa bo'ldi, shuning o'zi bilan kifoyalanib qoladi. Sof estetik san'at asarlari esa buni har bir jumla, satrlaridan ilg'ab oladi, shoirning badiiy tafakkurining qanchalik yuqori ekanligini isbotlab beradi:

H.Umurovning yuqoridagi nomi keltirilgan kitobida «sifatlash» xususida quyidagicha ta'rif beriladi: «Sifatlash – tasvir etilayotgan inson, predmet, narsa, hodisaning muhim belgisi (xislati, xususiyati, o'ziga xosligi)ni ko'rsatuvchi (izohlovchi, xarakterlovchi, ajratuvchi) so'z bo'lib, u aniqlanmishga sifatlovchi belgisini ko'chiradi.» Ushbu ta'rifdan sifatlashning tasvir etilayotgan predmet orqali namoyon bo'lishi tushuniladi. A.Oripovning muhabbat mavzusiga bag'ishlangan bir necha she'rlarida bunga boshqacha ta'riflar, ya'ni yor va uning ko'rinishini sifatlaganda chiroyli so'zlardan mohirona foydalanadi. Va shu so'zlar orqali satrlarida samimiylik ufurib, kitobxonni tezda sehrlab olish qudratiga ega.

Xalq ijodiyoti san'atkorga ilhom, ruhiy kuch-quvvat va fikriy teranlikni beradi. Folklordan bahramand bo'lmagan birorta so'z san'atkorining badiiy kamolini tasavvur etib bo'lmaydi. M.Gorkiy yozganidek: "Ertaklar bilan, umuman xalq og'zaki ijodining bebaho durdonalari bilan tanishish yosh yozuvchilar uchun mutlaqo foydali ekanligiga ishonchim komildir... Og'zaki ijodning yozma adabiyotga ta'siri alohida ahamiyatga ega va bu shubhasizdir".¹ Har bir ijodkorning xalq og'zaki ijodi folklor chashmalaridan oziqlanishi asarlaridagi folklor obrazlari va timsollarida, poetik tasvir usullari va vositalarida, sujet motivlarining u yoki bu darajada saqlanib kelayotganligida yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu ta'sirlanish omillarini o'zbek

¹ Gorkiy M. Adabiyot haqida. –T.: 1962. 321-bet.

adabiyotshunoslari maxsus o'rganganligini ta'kidlash lozim.¹ Ulkan adib Oybek bir o'rinda e'tirof qilib yozadiki: "Xalq uning tarixi, hayoti, uning kuy-qo'shiqlari men uchun bitmas-tuganmas ilhom bulog'i bo'lib keldi va shunday bo'lib qoladi ham"² Zotan, bunday e'zoz va e'tiroflarni barcha avlod adiblaridan eshitish mumkin, albatta. G'afur G'ulom "Folklordan o'rganaylik" nomli maqolasida: "Xalq ijodi – folklorga ergashib yozish yozma adabiyotimizning xalq o'rtasiga kirishi, ommalashishi, singishi uchun ancha yordam beradi"³, – degan fikrlarni bayon etadi.

Eng muhimi, tadqiqotimiz obyekti bo'lgan Abdulla Oripov ijodida ham ushbu mulohazalarning yorqin isbotini kuzatish mumkin. Zeroki, ijodiy izlanishlariga folklorning ta'sirini shoirning o'zi ham mamnuniyat bilan e'tirof etadi: "Negadir, – deb yozadi Abdulla Oripov, – bolaligimda xotiram nihoyatda kuchli edi. Radio, televidenie yoxud boshqa tomoshalar bo'lmagandan keyin ermagim kitob edi-da. Duch kelgan narsalarni o'qib, duch kelgan narsani yod olardim. Bu kitoblar orasida xalq dostonlari ham, Navoiy bobomizu Pushkindan tarjimalar, G'afur G'ulom, Hamid Olimjon she'riyati va yana ko'p romanu qissalar bo'lardi. Darvoqe, qish kunlarida to'ylarga qo'shni tumanlardan nomdor baxshilar kelib tong otguncha doston aytishardi. Biz bolalar baxshini tinglay-tinglay bir-birimizga biqinishib uxlab ham qolar edik. Yanglishmasam, o'shanda Umur shoir degan baxshining dostonlarini ko'p eshitganman".⁴

Inson ma'naviy olamining falsafiy va xalqona talqini

Abdulla Oripov inson ruhiyati bilan ijtimoiy voqelikni o'zaro bog'liq badiiy talqin etishda xalq og'zaki ijodining turli janrlaridan, poetik tasvir usullari va vositalaridan unumli foydalandi. Ana shu holat uning she'riyatida

¹ Mo'minov G'. Izlanishlarimdan qatralar. –T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006.

² Oybek. Mukammal asarlar to'plami. 14-jild. –T.: 1979. 14-bet.

³ G'afur G'ulom. Adabiy-tanqidiy maqolalar. –T.: Fan, 1971. 181-bet.

⁴ Oripov Abdulla. Ko'rgan-bilganlarim // Tanlangan asarlar.1-jild. –T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 2000. 7-bet.

xalq ohanglari va milliy ruhiyatning uyg'un tarzda namoyon bo'lishiga olib kelgan. Darhaqiqat, xalqning sof poetik tafakkuri yozma adabiyotga, muayyan bir shoir yoki yozuvchi ijodiyotiga ta'siri oqibatida yuzaga kelgan original asarlar zaminida badiiy idrokning xalqona sifati mujassam topadi. Xalq ijodiyoti motivlari Abdulla Oripov she'riyatining xalqchilligini belgilovchi yetakchi omillar sirasidandir. Bu narsani shoir asarlari badiiyatining qon-qoniga singib ketganligida folklorning turli janrlariga qayta-qayta murojaat etganligida, hatto qator she'rlari uchun uning ma'lum bir jihatlarini asos qilib olganligida ko'ramiz.

Odatda xalq ijodiyotida ham, jahon adabiyotida ham ota bilan bola o'rtasidagi munosabat juda ko'p marta qalamga olingan. Otalar va bolalar – maxsus ulkan bir mavzu. Otaga ehtirom o'zbek xalqi badiiy tafakkuriga xos xususiyat sanaladi. Abdulla Oripov she'rlarining birida ota bilan bola munosabatini bag'oyat xalqona tarzda badiiy ifoda qiladi:

Otalar boladan ranjisa ozroq,
Gohida shundayin so'zni deydilar:
Bolam, keksalarni qadrla ko'proq,
Bog'lab qo'ygan emas bizni, deydilar.
Keksa dilingizga tushmasin titroq,
Otalar, chayqalib turibdi olam.
Siz ham bolalarni qadrlang ko'proq,
Bog'lab qo'ygan emas, bolalarni ham (1- jild, 143-bet).

She'r xalq bilan, keksalar bilan lirik qahramon o'rtasidagi dialog asosiga qurilgan. Har bir keksaygan insonga xos xususiyat shuki, farzandlariga nasihat beradi. Qari odam o'laman deb qo'rqitadi deganlaridek, umri poyoniga yetayotganini tez-tez takrorlaydi. O'lim – haq. Buni anglash, tan olish komil insonga, xalqimiz tabiatiga xos eng muhim fazilat. Keksalarninig dil rozini eshitgan lirik qahramon o'rtadagi o'zaro muvozanatni yuzaga

keltirmoqchi bo‘ladi. Shu boisdan g‘oyatda xalqimiz donoligiga mos tushadigan “Har kim ekanini o‘radi” degan mulohaza mohiyatan maydonga keladi. Zeroki, har qanday inson zoti o‘tkinchidir. Insonlar bir-birini qadrlasin, hurmat-izzat qilsin. Bu purhikmat mulohaza o‘zbek milliy mentalitetiga va, ayniqsa, og‘zaki ijodi mohiyatiga chuqur singdirilgani barchaga ma’lum.

Shoirning “Ona” nomli she’rida quyidagi misralar bor:

Ko‘kda yulduz uchsa nogahon

Bitdi derlar qaysi bir taqdir.

Bunday g‘ammi ko‘tarmak oson,

Bu ehtimol bizlar haqdadir.

Ba’zi tunlar ko‘kka tikib ko‘z,

Eslab derman onamni shu on:

Ona ketsa, yulduz-ku yulduz,

Qulab tushsa arziydi osmon (1-jild, 128-bet).

Xalqimiz ong-shuurida qadimdan yashab kelayotgan bir tushuncha she’rga singdirib yuborilgan. Xalqda osmonda biror yulduzning uchib yo‘qlik qa’riga singishi biror kishi hayotining so‘nishidan darak beradi, degan qadimiy sharqona naql mavjud. Biroq, har bir ijodkor bu naqlga yangi ma’no va shakl baxsh etadi. Abdulla Oripov ham she’rdagi voqeani o‘zining ruhiy olami va taqdiri bilan bog‘laydi. Xususan, uchgan yulduz haqidagi she’r bevaqt ketgan ona nolasiga aylanadi. Biroq, lirik qahramonning onaga ehtiromi millat fazilati sifatida namoyon bo‘ladi. Shoir ijodidan bunday misollarni ko‘plab keltirish mumkin.

To‘g‘risi, mustaqillik sharofati tufayli ajdodlarimiz yaratgan ma’naviy merosni e’zozlash orqali milliy badiiy tafakkur an’analarning estetik qonuniyatlarini ochib berish imkoniyati kuchaydi. Zero, og‘zaki ijod namunalarning epik va lirik poeziyaga ta’siri masalasini tadqiq va targ‘ib

etish, shubhasiz, milliy istiqlol davri lirikasining o‘ziga xos xususiyatlarini idrok etish imkonini beradi. Birinchi Prezidentimiz I.Karimov ta’kidlaganidek, “sarchashmalari buyuk ajdodlarimizning tafakkurlari va muddaolaridan boshlanadigan xalqimizning ma’naviy qadriyatlari iqtisodiy o‘zgarishlarimizning mustahkam poydevori bo‘lib xizmat qiladi”.

Abdulla Oripov sharqona an’analarning qadimiy nahrlariga tutash og‘zaki ijod namunalaridan ta’sirlanishi bir qator go‘zal asarlarning yozilishiga turtki bo‘ldi. Uning “Uchqur xayol sohibi yigit...”, “Hangoma”, “Samoviy mehmon, besh donishmand va farrosh kampir qissasi”, “Sharq hikoyasi”, “Deydilar...”, “Eski quduq”, “Bemor va tabib”, “Alisher va talaba” asarlari, “Hakim va ajal” dostoni ana shunday ijodiy oziqlanish mevasidir. Bu asarlar xalq ruhiyati, donoligi va donishmandligini o‘ziga singdirgan. Yana xalqimizning jaydari milliy xarakterini, xulq-atvori, marosimlari, urf-odatlarini, hayotdagi yaxshi-yomon hodisalarni baholashi singari estetik qarashlari bilan ham sug‘orilgan.

Shoir folklor namunalariga, xalq rivoyatlari va afsonalaridagi purhikmat falsafiy-didaktik fikrlarga tayanib muhim falsafiy-badiiy xulosalar chiqaradi. Bu borada Abdulla Oripov she’riyati o‘ziga xos original xususiyatga ega, albatta. Bu jihatning o‘ziga xosligi, originallikning tabiati nimada ko‘rinadi?

Avvalo, shoir bu masalada ko‘pchilikka tanish bo‘lgan an’anaviy mavzularni tanlaydi. Lekin ana shu jarayonda adabiy voqelikning yangi qirralarini shoirona idroki bilan qayta kashf etadi. Shuningdek, yangilanayotgan mazmun-mohiyat talabidan kelib chiqib, o‘ziga xos badiiy shakl tanlaydi; mavzuni bugungi zamon ruhi bilan bog‘lab o‘quvchi hukmiga taqdim etadi. Shu ma’noda M.Qo‘shjonovning: “Abdulla Oripov qaysi bir mavzuga qo‘l urmasin, undan yangi, hali birov aytmagan qirralarni topadi, o‘z fikrlarini ifodalashda hali birov ishlatmagan obrazlarni ishlatadi. Shu yo‘l

bilan u o‘zgalarni takror qilmaydigan jozibali asarlar yaratdi”¹, – degan fikri juda o‘rinlidir. Bu narsa shoirning xalq og‘zaki ijodi an‘analarini o‘zlashtirishida ham yorqin ko‘zga tashlanadi. Xususan, xalq og‘zaki ijodining barcha janrlari zahirida yangi badiiy tafakkur durdonalarini kashf etadi. Natijada rivoyat va afsonalar asosida yaratilgan asarlari oqilona fikrlar, hayajonli kechinmalar, qizg‘in ruhiy holatlarda suratlantirilgan obrazlar bilan jonlanadi. Xalq e‘tiborini tortgan, o‘quvchilarni hayajonga solgan bu go‘zal badiiy obrazlar shoirning chinakam kashfiyoti, individual izlanishlari samarasi o‘laroq yuzaga chiqadi.

Abdulla Oripov she‘riyati negizidagi xalqona badiiy tafakkur omillari, shoir ijodiga og‘zaki ijod ta‘siri masalalarini o‘rganar ekanmiz, shoirning rivoyat va afsonalarga ma‘lum ishlov berganini yoki ularni asar g‘oyasiga singdirib yuborganini ko‘ramiz. Lekin ijodkorning xalq og‘zaki ijodidan foydalanishdagi ijodiy prinsipi o‘zgarmaydi. Ularni xarakter qirralarini ochish, personajlar nutqini individuallashtirish, voqelikni haqqoniy tasvirlash maqsadiga xizmat qildiradi.

Ma‘lumki, xalq og‘zaki ijodidan ta‘sirlanish turli ijodkorlarda turlicha shakl va mazmunda sodir bo‘ladi. Bu ijodiy jarayonni bir xil qolip va shakllar bilan belgilash to‘g‘ri emas. Ba‘zi ijodkorlar asarlarida folklor ta‘siri yorqin ko‘rinib turadi. Bunday xususiyat ijodkorning ertak va dostonlar syujeti asosida asarlar yaratishida yoki xalq maqol va iboralaridan foydalanganligida emas, balki unda ijodiyotiga xos badiiy tafakkurning qaror topganligida, milliy obrazlarni qo‘llash, qahramon xarakterini yaratish, hatto psixologik holatlarni saqlash kabi uslubiy holatlarda namoyon bo‘ladi. Adabiyotshunos O.Sobirov xalq og‘zaki ijodining shoirlar ijodida tutgan o‘rni haqida to‘xtalib: “...Agar Hamid Olimjon ertak-dostonlarida folklor asarlarining shakli, obrazlari, mubolag‘ani tasvirlash usullari, obrazlar

¹ Qo‘shjonov M. Onajonim she‘riyat. –T.: O‘qituvchi, 1984. .27-bet.

talqinini saqlashga moyillik sezilsa, Oybek poemalarida folklor traditsiyalarini va namunalarini o‘z ijodiy laboratoriyasida shunday qayta ishlaydiki, natijada asarda folklor materiallarining mazmuni va ruhigina saqlanib qoladi...”,¹ – deb yozadi. Og‘zaki ijodning bor mohiyati saqlanib qolgan holda qayta ishlash holatlari G‘afur G‘ulom, Mirkarim Osim, Erkin Vohidov, Omon Matjon kabi ijodkorlarning asarlarida ham kuzatiladi.

Abdulla Oripov ijodida yuqorida nomlari zikr etilgan adiblarimiz qarashlariga mos har ikki yo‘nalishni kuzatish mumkin. Xususan, shoir xalq og‘zaki ijodi namunalarini yaxshi biladi, xalq jonli tilini puxta egallagan. SHoir iborasi bilan aytganda, “Xalq og‘zaki ijodiga bepisandlik adabiyotdan yiroqlikdir”.² Aytish mumkinki, xalq og‘zaki poetik ijodidagi afsonalar, rivoyatlar, ertaklar, qo‘shiqlar mazmunini o‘rganish, xalq tilidagi serma’no iboralar, frazeologizmlar, qochirimlar, kinoyalarni chuqur anglash shoir she’riyatining ta’sir kuchi va jozibasini oshiradi. Chunonchi, shoirning “Eski quduq” (1987) she’ri Iskandar Zulqarnayn haqidagi mashhur rivoyat mazmuniga tayanib yozilgan. Rivoyatda aytilishicha, shaxsiy sartaroshi Iskandarning shoxi borligini ko‘rib, bu sirni ichiga sig‘dirolmaydi. Birovga ham lom-mim deb og‘iz ocholmaydi. Nima qilsin, axir, ichidagi gapdan yorilib ketmasa bo‘lgani. Axiyri, eski quduqqa boshini suqib “Iskandarning shoxi bor!” deb qichqiradi.

Shoir she’rida “rivoyat” so‘zini aynan qo‘llyaydi:

Hamma biladigan rivoyat buldir:

Emish Iskandarning bor ekan shoxi.

Uni yashirolmay sartarosh qurg‘ur

Quduqqa aytibdi, shudir gunohi.

Shu taxlit “sartarosh qurg‘ur” ichiga yashirgan sirli iztirob, darddan xalos bo‘ladi. She’r quyidagi band bilan tugaydi:

¹ Sobirov O. Oybek ijodida fol’klor. –T.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1975. 7-bet.

² Oripov Abdulla. Tanlangan asarlar. 4 jildlik. 4-jild. –T.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 2001. 74-bet.

Yashab kelmoqdaman o‘zimga ko‘ra,
O‘tgan-ketgan sirdan ko‘nglim erur to‘q.
Lekin nedir menga yetishmas sira,
Balki yetishmaydi u eski quduq (II jild, 102-bet).

Shoir o‘zi ta’kidlaganidek, bu hamma biladigan dono xalqning o‘lmas bir rivoyatidir. U juda qisqa bir tarzda – bor-yo‘g‘i to‘rt satr hajmida mahorat bilan ifoda qilingan. Ammo “qissa”dan chiqariladigan “hissa” keyingi bandda mujassam. Lirik qahramon qiyofasi qadim rivoyatdagi obrazdan farq qiladi. Shoir shu o‘rinda rivoyat asosida fikr-mulohaza aytish jarayonida original yo‘l tutadi. Lirik qahramon ichi dardga, sirga to‘la. Biroq u o‘z gapini bemalol ayta olmaydi, unga o‘sha sataroshdan qolgan eski quduq lozim. She’rning oxirgi misrasida “balki” yordamchisi qo‘llangan. Bunda ikkilanish, ehtimolga berilish, ehtiyotkorlik va eng muhimi, andishaga borish seziladi. Aslida, u ichini bo‘shatish uchun gapirishi ham, gapirmasligi ham mumkindir. Chunki bu lirik qahramon “har qanday rost ham degulik emas” (Alisher Navoiy) mazmunidagi sharqona hikmatni juda yaxshi biladi. Bu o‘rinda biz uchun muhimi shoirning she’r mag‘ziga rivoyat mohiyatini sindirgani, o‘sha rivoyat ta’sirida original bir she’r bitganidir.

“Bemor va tabib” (1987) she’rida esa bemor bilan tabib o‘rtasida kechgan savol-javob orqali badiiy maqsadga erishiladi.

– Sochim to‘kilmoqda, ey dono tabib,

Nima qilmoq kerak, chorasini ayt.

– Ellik yil yuribsan uni ko‘tarib,

Yana haqqing bormi? Boq unga loqayd (II jild, 107-bet).

Keyingi “Qulog‘im yaxshi eshitmayapti. Yuragim sanchmoqda” kabi savollarga ham, bu tabiiy hol, e’tibor bermasdan bemalol yuraver deb maslahat beradi tabib. Bemor tabibning aytganlarini to‘la bajaradi, ya’ni kechalari dong qotib uxlaydi:

O'sha kun uxladi u dorilomon,
Bemorni halovat bag'riga yutdi.
A'zolar hordiqqa chiqmish, yo'q gumon,
Ularning borligin butkul unutdi.
Bemor xursand edi, shod edi, xullas,
Shifo topgan edi malhamsiz, tekin (II jild, 107-bet).

Betashvish yashay boshlagan bemor butunlay sog'ayib ketadi. Bu mo'jizaning sababini so'rab kelganda:

Tabib javob qildi: o'zingni, bo'tam,
Yo'q deb hisoblasang-kirgaysan mingga!

Tabibning javobida, bemorning sog'ayishi tasvirida xalq og'zaki ijodiga xos badiiy tasvir vositalaridan biri – mubolag'a san'ati qo'llanilgan. Mayda ikir-chikir tashvishlarni pisand qilmasdan, buyuk orzu-maqсадlar bilan yashagan kishi yuzga kirishi mumkin. Ikkinchidan, tabib bemorga ruhan ta'sir qilgan, bemor ruhan tetiklashgan, o'zidagi xastaliklarni yo'q deb hisoblagan. Muhim bir jihati shuki, she'rda aytilmoqchi bo'lgan mazmun, fikr qaymog'i so'nggi ikki misraga joylangan. Sirtidan u jo'n gapday tuyulishi mumkin. Aslida xalqona poetik tafakkurga xos xususiyatlardan biri ham shu soddalik mohiyatiga yashiringan donolikdir. Misralarga ichdan nazar tashlansa, kuchli mubolag'aga "o'ralgan" chuqur ma'no mujassamlashgani ayonlashadi. Ushbu mazmun aniq asosga ega. Uning tayanch nuqtasi "o'zingni yo'q deb hisoblasang" jumlasidir. Tirik bo'la turib yo'q bo'lish, "o'lmay turib o'lish", "fano bo'lish" bu – aslida mumtoz sharq adabiyotining yetakchi motivlaridan, tasavvufning ustuvor g'oyalaridan biri hisoblanadi. Ko'rinadiki, badiiy tasvirda folklor libosidagi tasavvufiy g'oya ilgari suriladi.

"Bemor va tabib" she'ridagi lirik qahramon, tabib maslahaticha, yo'qlikni ixtiyor etsa, bemalol mingga kirishi mumkin. Ehtimol, shoir bu qarashni mutlaqo nazarda tutmagandir. Abdulla Oripovning jiddiy she'rlari

tabiatida ham xalqning o‘tkir matalgo‘ylariga xos nimtabassum, jiddiyat ortida yashiringan hikmat mujassam bo‘ladi. Xo‘sh, odam tirik bo‘la turib, o‘zini qanday qilib yo‘q deb hisoblasin? Buning uchun inson vaqt izmidan chiqib tutqunligidan qutuladi, demakdir. Bu narsa she‘rga ham so‘fiyona, ham milliy ruh bag‘ishlagan.

Lekin she‘rdagi mumtoz g‘oyani dastlabki o‘qishda ilg‘ash qiyin. Hali aytganimizdek, she‘rda bu kabi mumtoz, jiddiy g‘oyadan ko‘ra yumoristik motiv, hazil tariqasida aytilgan ma‘no yetakchilik qiladi, ya‘ni o‘zingni yo‘q deb hisoblasang, hech qanday dardga chalinmaysan, yoshing ham mingga etadi. Kundalik qo‘llanishda o‘zini yo‘q deb hisoblash haqiqatan ham kulgili va bo‘lishi mumkin bo‘lmagan gap. Lekin bu nojiddiy gap tagida chuqur ma‘no ham bor. Ba‘zan xalq ta‘birlaridagi juda sodda va oddiy ko‘ringan fikr mohiyatan chuqur ildizga ega bo‘ladi. A.Oripovning yuqoridagi she‘ri ham shu fazilatdan xoli emas.

“Alisher va talaba” (1991) she‘rida buyuk bobomiz Alisher Navoiy haqidagi rivoyatlardan biri o‘z ifodasini topgan. Kunlardan bir kun “Saroy yo‘lga chiqdi savlati bilan, Alisher arkoni davlati bilan”. Bosh vazir shahar oralab, barcha toifadagi fuqarolarning hol-ahvoli bilan qiziqib borayotgan bir paytda:

Nigoh yuritdilar saflarga tomon

Va bir talabaga boqdi nogahon.

Mehr ila tikilgach, tushdilar otdan,

Kim ul aziz kimsa aziz bul zotdan?

Borib talabani quchdilar hazrat,

Olomon ruhida yangradi hayrat (II jild, 166-bet).

Shundan keyin Navoiy otiga minib, yo‘lida davom etadi. Hammaning miyasida bu baxtli yigitcha kim ekan? – degan savol charx urar edi. Oxiri,

sabri tugagan bir mulozim “u talaba kim edi?” – deb so‘raydi. Navoiy shunday javob qiladi:

– Esimda, yosh chog‘im, ko‘p yillar nari,

Menga saboq bergan uning padari... (II jild, 166-bet).

Ma’lum bo‘ladiki, o‘zbek xalqining qon-qoniga singib ketgan “Ustoz otangdan ulug‘” maqoli she’rda ijodkor tomonidan o‘ziga xos shaklda poetik qimmat kasb etadi. Qachonlardir o‘ziga saboq bergan ustozning o‘g‘liga bu qadar katta hurmat-e’tibor bilan qarash – Alisher Navoiydek buyuk zotlarga yarashib tushadigan fazilatlardan biridir. Nima bo‘lganda ham, xalq tomonidan bu rivoyatning to‘qilishi va og‘izdan-og‘izga ko‘chib, bizgacha yetib kelishi – buyuk bobomizga va jamiki ustozlarga bo‘lgan xalq hurmatining bir ko‘rinishidir. Abdulla Oripovning buyuk mutafakkir qalamiga mansub “Shogird agar shayxul-islom, agar qozidur, Agar ustod andin rozi, tengri rozidur” baytini teran idrok etib bu rivoyatga murojaat etishi esa ham buyuk bobomizga, ham uni yaratgan xalq dahosiga bo‘lgan yuksak ehtiromidir. Qolaversa, Alisher Navoiy haqidagi xalq rivoyatida hayotiy asos bor. Aslida: “Haq yo‘linda kim sanga bir harf o‘qutmish ranj ila, Aylamak bo‘lmas aning haqqin ado yuz ganj ila”, degan mumtoz baytdagi ma’no shu rivoyat mohiyatida mavjud. Ustozni hurmatlash, el-yurt oldida e’zozlash xalqimizga xos buyuk fazilat. Abdulla Oripovning o‘zi ham muallimlarni “kamolot ichra ko‘zgu”, “hayot ganjida durri bebaho” deb ulug‘laydi. Alisher Navoiy bilan oddiy talaba o‘rtasidagi munosabat bayon qilingan she’rda shoirning ijodidagi ana shu konsepsiya o‘z ifodasini topgandir.

Shoir she’riyati o‘zining ijtimoiy-estetik ahamiyati bilan, olamni va odamni badiiy-falsafiy tushunishning hamda tushuntirishi bilan ajralib turadi. Tabiat, jamiyat hodisalarining, ruhiy olami, sir-sinoatlarini idrok va ifoda qilishdagi obrazlilik, hayotiy detallarning yorqinligi, poetik obrazlarning

ma'nodorligi, sermiqiyosligi bilan ruhimizni ma'nan boyitadi. Lirik qahramon qalbini og'ir tirnagan qiynoqlar azobida o'rtagan bu tuyg'u tasviri o'quvchi qalbini ana shu his girdobiga tashlaydi. Girdobga tushgan qalb esa yana to'lg'onadi. Bu kabi holatni har bir qalbga, vujudga shoir yuragining ziyosidan nurlangan sehrlovchi so'zlar olib kiradi. Bu misralarni shundoq olib qaraganda oddiygina, soddagina ko'rinadi. Ularda hech qanday sehlilik, murakkablilik yo'qdek tuyulishi mumkin. Lekin ular qachonki, qalb ko'zi bilan o'qilsa, shu darajada ta'sirchanlik shu darajada musiqiylik, sehlilik kashf etadiki, vujud beixtiyor ravishda munis, mehrlil, nafis bokira hislar og'ushida qoladi. Bir vaqtlar qalbini larzaga solgan hislar, tuyg'ular qaytadan bosh ko'taradi. Oshiqning intiq, intizor, sog'inchlarga ko'milgan, hijrondan zada qalbining yoniq manzaralari yurakda o'zining tiniq suvratini qayta tiklaydi. Bu manzara yoshlikning, muhabbatning sirli olamiga etaklaydi. Qisqasi, shoir qalbining sog'inch manzarasi, ruhiy olamining shunga mos holati o'quvchini sehlilaydi. Uning sehrlangan qalbi shoir hislari qanotida o'zining cheksiz tuyg'ular olamiga parvoz qiladi. Ana shu olamni qayta kashf etayotgan o'quvchi xayollari hijron tog'larining o'tkir qirralariga urilgan damlarga qaytganday og'rinadi. Hijron azobini so'z bilan ifodalash mumkin emasligiga ishonadi.

Yuqoridagi tahlil va talqinlar yuzasidan ushbu bob bo'yicha quyidagi xulosagalarga keldik:

- A.Oripov lirikasi va uning badiiyati hali bugungi adabiyotshunoslikda to'laligicha ilmiy jihatdan o'rganilgan emas, ammo bir necha maqola va taqrizlarda masalaning ayrim qirralariga to'xtalib o'tilgan. Bu boradagi olim va munaqqidlar qarashlarini keltirib o'tdik.

- A.Oripovning Vatan va muhabbat haqidagi she'rlari juda ko'pchilikni tashkil etadi va ommaviyligi bilan ajralib turadi;

- shoir shaxsiyatidan yaralgan tuyg'ular realizmi, inson qalbiga yo'l topayotgan sodda va samimiy satrlarda ifodasini topadi;

- shoir ijodida muhabbat lirikasi alohida o'rin egallaydi. Ilk mashqlarini muhabbat haqida yozishdan boshlagan shoir, bugungi kunga kelib, oshiq tilidan muhabbat haqidagi bitiklarini o'ziga xos talqini va ifodasini ko'rsatib bera oldi;

- har qanday chiroyli tashbehlarida inson xarakteri yorqin bo'yoqlarda ko'z oldimizda gavdalanadi, biz uni o'qish asnosida yurakdan his etamiz, shu boisdan ham shoir she'riyatini haqiqiy ma'nodagi yuksak lirika deb baholashimiz mumkin;

Abdulla Oripovning she'rlarida ko'plab xalq maqollari va iboralarini uchratamiz. Shoir ana shu xalq tafakkuri durdonalarini tayyor holatda asarga kiritish, shu tariqa asarini badiiy bezash yo'lidan bormaydi. Aksincha, she'r mazmunini yangi ijtimoiy-axloqiy g'oyalar bilan boyitadi. O'zbek xalqining yuksak odob-axloqi va madaniyatini ko'rsatadigan maqol va matallari juda ko'p. Xalqning ko'ngliga ko'zgu bo'lgan bunday hikmatlar she'rda ibratli chuqur ma'no kasb etadi; uning estetik ta'sir kuchini oshiradi. Shoir xalq iboralarini, maqol va matallarini shunday o'rinli qo'llaydiki, kitobxon bu hikmatlar xalqnikimi yoki shoirning o'zi to'qiganmi, payqamay qoladi. Bu hol Abdulla Oripovning she'rlari mohiyatidagi xalqona poetik tafakkurni namoyon etadi. Shoirning xalq ruhini, uning fikrlash tarzi va ijodkorligining asosiy jihatlarini puxta o'zlashtirib olganligidan dalolat beradi.

Eldagi "Marhumlarga tosh otma", "Marhumlarni yomonlama", "Ot tepkisini ot ko'tarar" kabi maqol va hikmatlar Abdulla Oripovning "Marhumlar sha'ni" (1992) she'rida teran milliylik ifodasi sifatida namoyon bo'ladi. Ayrimlari aynan xalq tilidagidek qo'llansa, ayrimlari xalq maqollari va iboralarining modeli asosida yaratiladi:

Toshqin sel vahmini soy ko'targaydir,

Hayotning zarbasin ko‘targay hayot.

Misli toy tepkisin toy ko‘targaydir,

Otning tepkisini ko‘targanday ot (11 jild, 208-bet).

She‘r misralarida xalq maqollari qayta ishlangan. CHunonchi, “Ot tepkisini ot ko‘taradi” maqoli shoir tomonidan mazkur qolip asosida yaratilgan “maqolsifat” fikrlarni o‘z atrofida uyushtiradi. Xususan, toshqin sel vahmini faqat soy, hayot zarbasini faqat hayot, toyning tepkisini yolg‘iz toy ko‘taradi. Vahm bilan oqayotgan sel ariqqa sig‘maganidek, hayotning zarbalarini shu jarayonda yashab, kurashib, yengish mumkinligi e‘tirof etiladi.

Abdulla Oripov ijodining o‘ziga xos tomonlaridan yana biri shundaki, unda azaldan xuddi ertaklar, masallar va maqollarga monand syujetli she‘rga ishtiyoqmandlik sezilib turadi. Inson taqdirini, psixologik kechinmalarini ifodalashda, hayot haqiqatini ko‘rsatishda bu usul g‘oyat qo‘l keladi:

Yuz yil yashasa ham bir bechora zot,

To‘ymadim hech, debdi, bu nechuk hikmat.

Oh, qandoq shirindir shu taxir hayot,

Oh, qandoq go‘zaldir shu juldur qismat (II jild, 79-bet).

El orasida og‘izdan-og‘izga o‘tib yurgan ertak, rivoyat va afsonalarda uzoq umr ko‘rsa ham, vaqti soati etib bu yorug‘ dunyodan ketishni istamay, abadiy hayot suvini ichib, mangu yashashga intilgan kishilar fe‘l-atvori ko‘rsatiladi. Dunyo molini yiqqanda ham to‘yishni bilmay, yana boylikka ruju qo‘ygan hukmdorlar, boylar ruhiyati tasvirlanadi. Shoir bunday kimsalarning psixologiyasini yoritishda orifona ikki misraga jamlangan ma‘no orqali kutilmagan chuqur falsafiy xulosaga keladi: “Oh, qandoq shirindir shu taxir hayot, Oh, qanday go‘zaldir shu juldur qismat”. “Shirin” bilan “taxir”, “go‘zal” bilan “juldur” orasida ziddiyat bor, shoir tazoddan

foydalanadi. Ayni damda she'rda qo'llangan so'zlar sodda, xalqona, nozik va chuqur falsafiy mazmunga ega. She'riyatdagi falsafiylik xalq donoligini, sayqallangan fikrlar qaymog'ini she'rga singdira bilish mahoratidir. Zero, xalq – dono ijodkor. Uning tilida va dilida nafaqat o'z avlodining, balki ajdodlarning ham hayot tajribasi, donoligi, hikmatlari jamuljam tarzda o'z aksini topgan.

Shunday qilib, xalq og'zaki ijodi namunalari ta'sirida yozilgan she'rlar ham Abdulla Oripov ijodining tarkibiy qismi bo'lib, shoir asarlarining poetik rang-barangligini ta'minlaydi; badiiy-estetik boyligini ko'rsatadi.

Folklor ta'sirida yozilgan she'rlar saboqli, ibratli hikoyatlar tarzida yaratilgan. Hikoyatlarda tasvirlangan obrazlar o'zining pishiq-puxtaligi va tabiiyligi bilan e'tiborni tortadi. Bunday she'rlarning ko'pchiligi yumoristik uslubda. Boshidan oxirigacha engil yumor, kulgi ruhi sezilib turadi. Bu xil she'rlar hamisha salmoqdor badiiy umumlashma fikrlar, falsafiy xulosalar bilan tugallanadi. Badiiy umumlashma xulosalarda o'quvchi uchun ibratli teran fikrlar singdirilgan. Hikoyat-she'rlarning tili sodda, aniq va tiniq. Ularda xalqona iboralar, qochiriq-kinoyalalar, tabiiy obrazlar, hazil-mutoyiba ko'p qo'llangan. Xalq tili bilan adabiy til uyg'unlashib, lo'nda ifoda uslubi yaratilgan. Chunki shoir xalq og'zaki ijodi falsafasini teran idrok etadi. Undan o'rinli foydalanish shoir she'riyatining ta'sirchanligini oshirgan omillardan biridir.

Ko'rinadiki, shoir insoniy va milliy ruhiyatning jami murakkabliklarini badiiy tasvirlashda g'oyat samarali yo'ldan borib, xalq og'zaki ijodi boyliklaridan unumli foydalanadi. Ijodkor xalq hayotining muhim jihatlarini o'z badiiy nigohi bilan ko'radi, idrok etadi. Shu asosda voqea-hodisalarga ijodiy yondashadi.

Adabiyotshunos M.Qo'shjonov qayd etganidek, "Yozuvchi mahorati hayotga yondashishdan, uning muhim tomonlarini ko'ra bilishdan

boshlanadi. Uni ma'nodor va yorqin qilib tasvirlab berish bilan yakunlanadi"¹. Olimning fikri Abdulla Oripov ijodiga ham bevosita daxldorligi bilan ahamiyatlidir. Xalq og'zaki ijodidan ta'sirlanish Abdulla Oripov she'riyatining xalqimiz qalbidan joy olishiga, chuqur donishmandona mazmun bilan boyishiga sababchi bo'ldi.

Ikkinchi bob yuzasidan quyidagi xulosalarga keldik:

– so'z san'atkorlarining badiiy idroki mahsulini yangicha – istiqlol mafkurasi, xalqona poetik tafakkur va milliy g'oya nuqtai nazaridan baholash uchun zarur shart-sharoit vujudga keldi. Xususan, istiqlolni ulug'lash va mustahkamlash, millat ruhini ko'tarish, kelajakka chorlash ruhi badiiy pafos darajasiga ko'tarilgan Abdulla Oripov ijodini xolis va haqqoniy baholash uchun zamin yaratdi. Zotan, Abdulla Oripov jahon klassikasi, o'zbek mumtoz va zamonaviy badiiy-estetik tafakkurining ijodiy an'alarini, yetakchi xususiyatlarini o'ziga singdirgan holda adabiyot maydoniga qadam qo'ydi. Ilk qadamlaridanoq milliy ruh – xalqning orzu-armonlarini badiiy tasvirlab, millat ruhiyatini ifodalashda g'oyat samarali yo'ldan bordi, xalq og'zaki ijodi namunalaridan unumli foydalandi.

– “Ona”, “Hangoma”, “Samoviy mehmon, besh donishmand va farrosh kampir qissasi”, “Sharq hikoyasi”, “Eski quduq”, “Bemor va tabib”, “Alisher va talaba” kabi asarlarida tom ma'nodagi o'zbekona poetika tabiati ajralib turadi. Ularning mazmun-mohiyatida, shoirning badiiy talqinida bevosita folklor an'alaridan ijodiy foydalanish yetakchilik qiladi. Ular o'zbek millatining ming yillar silsilasida shakllangan ruhiyatini, estetik qarashlarini, shuningdek, sharqona milliy xususiyatlarini, xulq-atvori, marosimlari, urf-odatlarini, hayotdagi yaxshi-yomon hodisalarni baholash, insonning ma'naviy olamini yoritish kabi g'oyalar bilan sug'orilgan. Xalqona poetik tafakkur

¹ Qo'shjonov. M. Qalb va qiyofa. – T.: Fan, 1978. 15-bet.

negizida maydonga kelgan shoir asarlari asosida falsafiy, hikmatona mazmun va badiiy joziba, soddalik va samimiylik yaqqol koʻzga tashlanib turadi.

Abdulla Oripovning badiiy ijodi mavzu-masalalariga koʻra gʻoyat boy. Ishq-muhabbat va hijron iztiroblari, Vatanga muhabbat va farzandlik burchi, millat taqdiri uchun jon kuydirish, oʻz xalqi bilan faxrlanish, milliy gʻurur tuygʻulari, ayolga, onaga boʻlgan hurmat va mehr-muhabbat yuksak mahorat bilan kuylanadi. Xalq va Vatan manfaatlari ona tabiat va maʼnaviyat ekologiyasi singari muammolar shoir sheʼriyatida milliy ruhning badiiy talqiniga asos boʻlgan.

– shoir sheʼrlarida milliy ruh turli badiiy usul va vositalarda tavsiflanadi. Xususan, uning “Hangoma” sheʼrida qoʻllangan badiiy-tasviriy usul oddiy hangoma tarzidagi voqeaga jiddiy falsafiy mazmuni yashirish hamda yashirin tarzda koʻrsata olish imkonini beradi. Xalqona ruh bilan sugʻorilgan “Samoviy mehmon, besh donishmand va farrosh kampir qissa”da esa boshqacha badiiy-tasviriy usul qoʻllanadi. Asar boshida uncha mensilmagan Farrosh kampir badiiy tasvir sahnasiga kirib kelishi bilan manzara tamoman oʻzgarib ketadi. Farrosh kampir asarda koʻtarilgan maʼnaviy-axloqiy muammolar markaziga qoʻyiladi. Xalq ogʻzaki ijodi materiallaridan unumli foydalangan holda yaratgan “Hangoma”, “Samoviy mehmon, besh donishmand va farrosh kampir qissasi”, “Sharq hikoyati”, “Eski quduq”, “Bemor va tabib”, “Alisher va talaba” kabi asarlardagi xalqona ruh, soddalik bilan yoʻgʻirilgan badiiy mukammallik shoir poetik olami qirralarini oʻzida namoyon qiladi.

III BOB.

DINIY-MA'RIFIY G'OYALAR BADIY TALQINI

“Haj daftari” turkumi shoir she'riyatida yangi yo'nalish sifatida

Yuksak ma'naviyat hamda ma'rifat nafaqat davr adabiyoti tarixi, shuningdek, shoir estetikasining o'zak mag'zini tashkil etadi. Zero, u har bir xalq nafis so'z madaniyatining milliyligini, o'ziga xos favqulodda tarovatini belgilaydi. Aytish mumkinki, A.Oripov qalamidan to'kilayotgan ruhoniyyat, nozik qochirimlarga boy, maqollar va aforizmlarni eslatuvchi teran ma'nolar, tesha tegmagan, ohori to'kilmagan, sayqallanmagan durdona so'zlardan tug'ilgan she'riyat tom ma'noda milliy ma'naviyatga daxldor. A.Qahhor ta'biricha, chinakam badiiy iqtidor xalq dilidagini topib aytish bilan o'lchanadi. Aniqrog'i, xalqchilik, milliylik, bashariy umuminsoniy qadriyatlar shoir badiiy tafakkuridagi evrilishlar, sifat o'zgarishlari tafovuti va mushtarakligini belgilaydigan yetakchi me'yor, bosh mezon. U g'oyat teran va ko'lamdor mazmunni, taxi buzilmagan, shaxs va millat, Vatan manfaatlari bilan bog'liq badiiy-falsafiy g'oyalarni ifodalaydigan asosiy sifat ko'rsatkichi. Shu ma'noda, muallif badiiy idroki va ifoda madaniyatidagi realistik hamda romantik xususiyatlar badiiy ijod-ilhom shukuhining o'ziga xos tabiatini, har bir xalqning badiiy didi-saviyasini ko'z-ko'z etadigan, ijtimoiy voqelikni, hayotni millat manfaatlari va qiziqishlari nuqtai nazaridan kuzatadigan, o'rganadigan, baholaydigan estetik hodisa sifatida bo'y ko'rsatadi. Zero, har bir xalqning o'ziga xos milliy qiyofasi, ijtimoiy-iqtisodiy hayot tarzi taqozosi bilan belgilanadigan turmush yo'sini, psixologiyasi va tabiati tom ma'nodagi ijodkor ongi-dunyoqarashida maromiga yetadi.

Ajdodlarimizning boy ilmiy va adabiy merosining ham ma'naviy-axloqiy, ham ma'rifiy tomondan o'tkaza boshlagan ta'siri shoir ijodida ham

o‘chmas iz qoldirdi. Jumladan, «Haj daftari», «Hikmat sadolari» turkumlari A.Oripov she‘riyatida diniy g‘oyalarning xalqona ohang kasb etishi, tasavvufiy aqidalarga moyillikning ortishi, bedilona ifodaning shakllanishi, rumiyona falsafiylikning kuchayib borayotganligini dalolatlaydi. Yangicha ilmiy-nazariy qarashlar shakllanish tarzi badiiy jarayondagi o‘zgarishlar bilan bog‘liqligini hisobga olsak, masalaning mohiyati yanada oydinlashadi. Shu nuqtai nazardan tadqiqotimiz ob‘ekti sifatida Abdutslla Oripov qalamiga mansub ijod namunalari tanlab olindi. Negaki, she‘riyatdagi rang-baranglik, inson ruhiyatining ijtimoiy-axloqiy-psixologik teranliklariga kirib borishga intilish, g‘oyaviy mundarijada yuzaga kelgan evrilishlar natijasi o‘laroq kuzatilayotgan yangicha badiiy tamoyillar mushtarakligi A.Oripov so‘nggi bosqich ijodiy izlanishlarida salmoqli o‘rin tutadi.

Umuman, ko‘p asrlik an‘anaga yo‘g‘rilgan o‘zbek lirikasi mohiyati rang-barang. Uni shartli-nisbiy turlarga ajratish aksar hollarda ijobiy samara bermaydi. Chunki turfa falsafiy-ijtimoiy ta‘limotlarning, san‘at turlarining adabiy ta‘sir bosimi mohiyat o‘zgaruvchanligini yetakchi xususiyatga aylantirmoqda. Sintetik xarakter kasb etayotgan poetik ifoda ijodiy yaxlitlikni birlamchi o‘ringa olib chiqdi. Shunday ekan, yangi bosqich o‘zbek nazmi g‘oyaviy-estetik tamoyillarini hozirgi milliy she‘riyat takomilida o‘z o‘rniga ega, tasvir va ifoda yo‘nalishida yangi so‘qmoqlar ochishga intilayotgan A.Oripov ijodiy mahorati timsolida kuzatish o‘zbek she‘rshunosligi va tanqidchiligining istiqbolli yo‘nalishlarini belgilab beradi, deyishga to‘la asos bor.

She‘riyat ko‘ngil va ruh orasidagi ilohiy aloqani qayta tiklaydi. Kechinma va tuyg‘uning ijtimoiy-falsafiy mohiyati tahlil jarayonida muayyan mohiyat kasb etadi. So‘zning ichki mohiyatini esa talqinga moyillik belgilaydi. Nazmning tayanch nuqtasini muhokama ta‘minlasa, uning

magʻzini monologlashgan ongning dialogik koʻrinishi tayin etib, unda anglangan haqiqatning anglanmagan mohiyati ustuvordek koʻrinadi.

Adabiyotshunos olim D.Quronov taʼbiri bilan aytganda «Sheʼr nasriy asardan koʻra kuchliroq estetik taʼsir etib, oʻziga xos zavq bera olishi bilan ajralib turadi. Albatta, sheʼrning bu sifati unda his-tuygʻuning mos ritm, musiqiy ohangda ifodalanishi bilan ham bogʻliq. Biroq, sheʼrning taʼsir kuchi birgina ohangdorlik bilan taʼminlanmaydi. Sheʼr his-tuygʻu ifodasi ekan, uning taʼsiri koʻp jihatdan shu obraz asosida amalga oshib, obrazda shoir oʻz his-tuygʻularini tavsiflab yoki xuddi musavvirday tasvirlab ifodalashi mumkin».¹

Lirikada tushuncha mohiyati hamisha mavhumlikdan oziqlanadi. Ushbu murakkablik darajasini aynan tuygʻu va ong oʻrtasida aloqa uzviyligi tayin etadi. Unda ijodkor tomonidan estetik obʻektga yuklatilgan gʻoyaning koʻpqirraliligi yetakchi mavqe kasb etadi. Eng muhimi, badiiy munosabat teranligi ong miqyoslari oʻziga xosligini taʼminlaydi. Tasvir hamda tasavvur tahlili esa hayotiy qamrov va badiiy idrok orasidagi raqobat maydonini shakllantiradi.

Sahobalar dedi: – Qaniydi zugʻum,
Qanday gʻam bagʻringiz tigʻlamoqdadir?
Rasul javob qildi: – Bir osiy shu zum,
Qabrida qon qaqshab yigʻlamoqdadir.

A.Oripovning «Hikmat sadolari» turkumiga kirgan adabiy talqinda oʻzaro muloqot diniy-maʼrifiy mohiyatni gavdalantiradi. Sahobalarning savoliga Rasuli alayhissalom javobi muammoga oydinlik kiritadi. Paygʻambarimizning oddiy banda holatidan gʻussaga choʻmishi hayotiy asoslarga ega. Qabr boshida u insonning bir kun tuproqqa aylanishini yodga oladi. Garchand, qahramon mazkur haqiqatdan xabardor boʻlsa-da, titroqqa

¹ Quronov D. Sheʼriyatda geometrik izlanishlar // Sharq yulduzi. 2011. №3. 173-bet.

tushadi. Bu titroq bani bashar qismatidan bezovta ko'ngil titroqlarini ifodalayotir. «Qabrida qon qaqshab yig'layotgan» osiy bandaning taqdiri Parvardigor elchisini g'amga botiradi. She'rda oniy lahzadagi ruhiy holat tasvirlanadi. Muallif tasvir va tahlil tezkor o'rin almashinuvlarini estetik talqin markaziga chiqaradi hamda nozik ijtimoiy-falsafiy umumlashma yaratadi.

«Abdulla Oripov poetik tiplarni shoirona tavsiflar vositasida gavdalantiradi. Tiplarning xarakterli belgilarini ular namoyon bo'ladigan hayotiy situatsiyalarda ochadi. Lekin bu situatsiyalarni nihoyatda ixcham tasvirlaydi. Bunday tiplar yaratishga bo'lgan intilish Abdulla Oripov she'riyatidagi qudratli didaktik yo'nalishdan tug'iladi, paydo bo'ladi. She'rlar yorqin ma'naviy xulosalar bilan yakunlanadi. Shoir ochiqdan-ochiq tarbiya bilan shug'ullanadi. She'riyat tarbiya bilan ham jiddiy va qat'iy shug'ullanishi kerak, deb ishonadi»¹ – deya mulohaza yuritadi, adabiyotshunos olim I.G'afurov.

Shoir lirikasining o'ziga xosligi hamisha inson fenomeni psixologik qirralarini tadqiq qilishga moyillik bilan o'lchanadi. Bu o'lcham talqin teranlashuvi – poetik tip shakllanishiga zamin hozirlaydi. Kutilmagan va g'oyatda favqulodda falsafiy mushohadalar yangidan-yangi mantiqiy fikrlarni yuzaga chiqaradi. Xarakter badiiy tadrijini ham ma'naviy, ham ma'rifiy jihatdan o'zgartirishga intilish shoir badiiy izlanishlari mag'zini belgilaydi. Unda shoir obrazi va lirik qahramon timsoli o'zaro qorishib ketadi. Mukammal ong, tushuncha hamda psixikani tasvir yo'siniga singdirish, badiiy xarakter hayotiy-mantiqiy asoslarini kuchaytirish, mohiyat ifoda xususiyatlarini topishga urinish shoir she'riyati yo'nalishini belgilab beradi.

Dedilar: – U edi nodiri davron,

Tafakkur qasriga bo'lgan zina.

¹ G'afurov I. She'riyat – izlanish demak. –T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1984. 27-bet.

Dedilar: – Bir keldi bundayin inson

Ketdi uning bilan tengsiz xazina [3.208].

She'riy lavhada dialoglashgan ong tamomila o'zgacha yo'sinda namoyish etiladi. «Dedilar» iborasi yordamida shoir nutq muallifini yashiradi. She'ning davomidagi «Naqadar shafqatsiz haqiqat» misralari mohiyatan «xazinaning joyi chindan yer osti» ekanligini poetik tasdiqlaydi. Olimning tuproqqa qo'yilishi aslida ulkan yo'qotish! Binobarin, u o'zi bilan beqiyos ma'naviy-ma'rifiy boylikni olib ketadi. Shogirdlar alami xuddi shu nutqdan ibtido oladi. Garchand, «azizroq do'st yo'qdir O'zidan ortiq», «bandaga sig'inish gunoh muqarrar» bo'lsa-da, buyuk inson xotirasi qalblarni larzaga soladi.

She'riyatda nutqiy ifoda shakllari bir-biri bilan tig'iz munosabatga kirishadi. Vaholanki, unda badiiy shartlilik yetakchi o'ringa ko'tariladi. Lirik talqinda tuyg'u hamda idrok mutanosibligini inobatga olsak, masala mohiyati yanada oydinlashadi. Ta'kidlash joizki, nazmda badiiy nutq tadriji murakkab jarayon sifatida namoyon bo'ladi, unda o'tish shakllari xilma-xilligi kuzatiladi. Adabiy tahlil va estetik idrokda mujassam erkinlik darajasi goh nutqiy ifoda boshqaruvini yetakchi o'ringa ko'tarsa, goh ritorik ohangdoshlikni diqqat markaziga chiqaradi.

Abdulla Oripov – rostgo'y ijodkor sifatida xalqimizning quvonchiga ham, dardu g'amiga ham birdek sherik. Shunga ko'ra, uning ijodida shodlik va quvonch tuyg'usi ko'pincha tashvish, dardu alam tuyg'usi bilan uzviy birlikda namoyon bo'ladi. Shoir xalqimizning halol ishlab, halol yashayotganidan qanchalik shodlansa, ba'zi kishilarimizda mehr-oqibat, to'g'rilik va sadoqat yo'qolib borayotganidan shunchalik tashvishlanadi, iztirob chekadi. Abdulla Oripovning o'z xalqi taqdiriga dil-dilidan achinib, kuyunchaklik bilan: «Qarshingda hasratli o'yga tolaman, Qachon xalq bo'lasan, sen ey, olomon?!» - deb nido qilishi ham shuning natijasidir.

Shoir lirikasidagi yana bir katta mavzu – bu inson mavzusi, inson haqidagi yangi haqiqatlarni ochib berish, insonni butun murakkabligi bilan tasvirlash muammosidir:

Koinot gultoji insondir azal,
Undadir eng oliy, tafakkur, amal.
Hatto u tubanlik ichra ham tanho,
Yo falak, ijoding muncha mukammal.

Shoirning butun ijodi mana shu inson zakosi, uning sir-sinoati, anglab bo‘lmas sehru jodusi, yuksakligi va tubanligi qarshisida lol bo‘lgan qalbning hayratidek tassurot qoldiradi. U bir she’rida:

Qancha-qancha sir yashar har kimning bisotida.
Shul sabab ul INSONDIR, shul sabab u ZOT erur,

deb yozadi. Darhaqiqat, insonni, uning murakkab kechinmalarini, ruhiy olamini tadqiq etish, «buyuk mavjudot»ning anglab olish hamisha ham ososan bo‘lavermaydigan fe‘l-atvorini, «siyrati»ni anglash istagi shoirga sira tinchlik bermaydi.

Biroq shoir inson tasvirida abstrakt muallaqlikdan juda yiroq. «Men nimani ko‘rib, his etgan bo‘lsam, shuni qalamga olishga harakat qilganman», deydi shoirning o‘zi. Uning o‘lmas mavzudagi she’rlari inson ruhiyati va ma’naviyati haqidagi tizginsiz, ziddiyatli falsafiy mushohadalardir. «Genetika», «Malomat toshlari», «Qo‘riqxonona», «Uchinchi odam», «Tafakkur monologi», «Vijdon», «Dengizga», «Bir tanishim haqida ballada», «Dialektika» kabi she’rlarning barchasida inson ma’naviyati, e’tiqodi, yaxshilik va yomonlik, go‘zallik va qabohat, vijdon va imonsizlik o‘rtasidagi kurash, dunyoni soflash, komil inson g‘oyasi jozibali, ehtirosli, falsafiy teran ifodalanadi. Bu she’rlarning har biri uzoq izlanishlar, «ijod to‘lg‘og‘i», olijanoblik va razillik qarshisida hayratga tushish, insondagi turfa, butunlay qarama-qarshi holatlar oldida tang qolish mahsuli sifatida yuzaga kelgan.

O‘zi yashab turgan davrning, insonning sir-sinoatlarini bilishga, badiiy mushohada etishga, uning murakkab ruhiy olami manzaralarini yoizishga oshiqish, har biri o‘ziga xos «sayyora» bo‘lgan, yuragida o‘yu fikrida so‘z bilan ifodalash mushkul tilsimotlar yashiringan inson qalbini tadqiq etish mudom shoir dilini bezovta qilib keladi. Shoir bir she‘rida bejiz:

Inson qalbi bilan hazillashmang Siz,
Unda ona yashar, yashaydi Vatan.
Uni jo‘n narsa deb o‘ylamang hargiz,
Hayhot! Qo‘zg‘almasin bu Qalb daf‘atan!..

deya xitob qilmaydi. Bir tomondan, o‘zida Vatan, til, millat, bashar kabi umuminsoniy tushunchalarni ifodalagan insonni mukammal ko‘rish, unda insof, mehr, diyonat, adolat va odillik, vijdon kabi matlablar tobora noyoblashib borayotganligidan tashvishga tushish, ularni asrashga chaqirish, «asrimiz odami»ning goho idrok qilish mushkul bo‘lgan sa’y-harakatlaridan yoqa ushlab, ikkinchi tomondan umumiy, biroz mavhumroq insonni kuylashdan aniq bir insonning ichki olamiga nigoh tashlashga o‘tish, ya’ni insonni badiiy – falsafiy talqin qilish barobarida konkret-hissiy idrok etish shoir ijodida inson talqinining o‘ziga xos xususiyatlaridir.

Shoir she‘riyatida inson konseptsiyasi jonli mavjudotning gultoji – insondagi yovuzlik va ezgulik o‘rtasidagi ziddiyat tarzida komil inson g‘oyasidan kelib chiqib aniq ijtimoiy-axloqiy nuqtai nazaridan yoritiladi. «Inson manzarasi», «Iltimos», «Ishonch ko‘priklari», «Yalang‘och satrlar», «Tiriklik», «G‘alati zot», «Savob», «Tafakkur monologi» kabi she‘rlarida insonni yanada barkamol ko‘rish, ma’naviy poklik masalalarining turli jihatlari o‘tkir qilib qo‘yiladi, «dunyo ham, insonlar qalbi ham bugun yovuzlikdan zada qo‘riqxon» bo‘lgan bir davrda mehr-muhabbat, savob, pok niyatlar insonni tark etmasligi uchun bong uradi:

Olamda ko‘p narsa kamyob bir qadar,

Ne-ne tuyg‘ular ham kamyobdir, alhol,
Men derdim: sof qalbni uchratgan safar,
Darhol o‘rab oling atrofin, darhol.

Shoirning butun she‘riyati singari muhabbat lirikasi ham o‘ziga xosligi, teranligi, tuyg‘ularning tabiiyligi, hayotiyliigi, real voqelikka monandligi bilan ajralib turadi. Sevgi haqidagi hazin, mungli ohanglar har qanday oh-vohlar, o‘ldim-kuydimlardan tamomila yiroq. Javobsiz muhabbat iztirobi, alami, chuqur insoniy kechinmalar, chinakkam sevgi orzumandi bo‘lgan katta qalb egasining dardu dunyosi, hasratlari, yonish-o‘rtanishlari, iztiroblari shoir muhabbat lirikasining mazmunini tashkil etadi.

“Haj daftari” turkumida diniy-axloqiy g‘oyalar talqini

Ijod jarayoni g‘oyat sirli va murakkab. Shu boisdan ham tom ma‘nodagi ijod doimo individual va betakror. Lekin, ijodiy jarayon qanchalik individual va betakror bo‘lmasin, shakl va mazmun o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikning umumiy qonuniyati bor bu qonuniyatga bo‘ysungan holda ijodkor o‘z asarlarini yaratmas ekan, unda u hech qachon yutuqqa erisha olmaydi. Bu haqda adabiyotshunosliklarda ham tugal fikrlar bildirilgan.

Shakl va mazmun badiiyatning eng muhim jihatlari sanaladi. Shu jihatdan ham nafaqat shoir, yozuvchilar balki adabiyotshunoslar ham bu masalaga alohida e‘tibor bilan yondashadi. Biz ham mana shu jihatni hisobga olgan holda Abdulla Oripov ijodida shakl va mazmun masalasiga to‘xtaldik. Bundan tashqari bu masalani o‘rganib chiqqan adabiyotshunoslar fikri va ularning xulosalariga to‘xtalishni lozim topdik.

Abdulla Oripov ijodida shakl va mazmun o‘zaro dialektik aloqada bo‘lib, ular bir-birini taqozo qilgan holda, bir-biriga ta‘sir qilgan qilgan holda yuzaga chiqqan. Bu haqda N.Rahimjonov quyidagi fikrlarni bildiradi: «... har bir shoirning o‘ziga xosligi dunyoni yangicha ko‘rishi, o‘ziga xos sa‘nat vositalari bilan ko‘rsatishida nomoyon bo‘ladi. So‘nggi yillar she‘riyatimizda

hayot va voqelikni turli xil poetik janr va formalarda aks ettirish mayli kuchaydi. Xususan, E.Vohidov ijodida lirik va liro-epik poema, gʻazal, R.Parfi lirikasida sonet, xokku, tanka, A.Oripov lirikasida esa liro-epik, dramatik poema hamda toʻrtlik, sakkizlik singari xilma-xil poetik janr va shakllardagi izlanishlar koʻzga tashlanadi. A.Oripov sheʼriyati tom maʼnoda nomatorlik maqomiga ega. Zero, novatorlik faqat shalk bilan belgilanmaydi»¹.

Shakl va mazmuni ifoda etish uchun shoirlarga xalq ogʻzaki ijodi qoʻl keladi. Chunki xalq ogʻzaki ijodi – bu nafaqat mazmuni boyishda balki shaklni toʻgʻri topishda ham muhim ahamiyatga ega. Shu sababli xalq ogʻzaki ijodidan bahramand boʻlmagan, ijodiy taʼsirlanmagan soʻz sanʼatkorini uchratish qiyin. Bu taʼsirlanish turli ijodkorlarda turlicha kechadi. Baʼzi sanʼatkorlar ijodida folklor taʼsiri juda yorqin koʻrinib turadi. Bunday xususiyat ijodkorning ertak va dostonlar syujeti asosida asarlar yaratishi yoki xalq maqol va iboralaridan foydalanganligida emas, balki unda xalq ijodiyotiga xos badiiy tafakkurning qaror topganligida, shuningdek, xalqona obrazlarini qoʻllash, qahramon xarakterini yaratish, hatto psixologik holatlarni saqlash va shu kabi uslubiy koʻrinishlarda namoyon boʻladi. O.Sobiroov xalq ogʻzaki ijodining baʼzi shoirlar ijodida tutgan oʻrni haqida toʻxtalib: «... Agar Hamid Olimjon ertak-dostonlarida folklor asarlarining shakli, obrazlari, mubolagʻali tasvirlash usullari, obrazlar talqinini saqlashga moyillik sezilsa, Oybek poemalarida folklor anʼanalarini va namunalarini oʻz ijodiy laboratoriyasida shunday qayta ishlaydiki, natijada asarda folklor materiallarining mazmuni va ruhigina saqlanib qoladi...»² - deb yozadi.

Bu anʼanani oʻziga xos badiiy tafakkur orqali davom ettirayotgan Abdulla Oripov ijodida ustozlari faoliyatiga xos har ikki yoʻnalishni ham kuzatish mumkin. Yaʼni, shoir xalq ogʻzaki ijodi namunalarini yaxshi biladi,

¹ Raximjonov N. Mustaqillik davri oʻzbek sheʼriyati. –T.: Fan, 2007. 44-bet.

² Sabirdinov O. Oybek ijodida folklor. –T.: 1975, 7-bet.

xalq jonli tilini puxta o‘zlashtirgan va aytish mumkinki, xalq og‘zaki poetik ijodidagi afsonalar, rivoyatlar, ertaklar, qo‘shiqlarning mazmunini o‘rganish, xalq tilidagi serma’no iboralar, qochirmalar, kinoyalarni chuqur anglash shoir she’riyatining ta’sir kuchi va jozibasini oshirgan.

A.Oripovning xalq og‘zaki ijodiga bo‘lgan munosabati shoir she’riyatining folklorga o‘xshashi bilan emas xalqchil ruhi bilan belgilanadi. Bu ruh esa asar mazmuniga singdirilib yuborilgan bo‘ladi. Shoir xalq she’riyatiga ergashib yoki taqlid qilib emas, balki uni to‘la o‘zlashtirib, qalam tebratadi. Chunonchi shoirning «Ona» she’rini olaylik:

Ko‘kka yulduz uchsa nogahon,
Bitdi, derlar, qaysi bir taqdir.
Bunday g‘amni ko‘ratmak oson,
Bu ehtimol, bizlar haqdadir.
Ba’zan tunlar ko‘kka tikib ko‘z,
Eslab, deyman, onamni shu on:
Ona ketsa, yulduz-ku yulduz,
Qulab tushsa arziydi osmon.

Xalqda yulduzning uchishi biror kishi hayotining so‘nishidan darak beradi, degan qadimiy tushuncha bor. Shoir bu tushunchani «Ona ketsa, yulduz-ku yulduz, Qulab tushsa arziydi osmon» satrlari orqali mutlaqo yangicha poetik shaklda ifodalaydi.

Abdulla Oripov folklorga xos tashbehlar, an’anaviy xalqona obrazlar bilan cheklanib qolmay, ayrim she’rlarga kichik rivoyatlar, afsonalarni olib kiradi yoki ularga ishora qiladi. Ba’zi asarlarni esa to‘g‘ridan to‘g‘ri xalq yo‘lida, folklor ohangi va uslubida boshlaydi.

Badiiy adabiyot, xususan, she’riyat asrlar davomida insonning qalb kechinmalarini, ichki olamini kashf etishga intilib kelgan. Zero, har qanday badiiy asarda inson orzu-istaklari, maqsad intilishlari ijodkorning estetik

ideali asosida yoritiladi. Ma'lumki, she'riyat – shoir qalbi, ruhiy kechinmalaridan vujudga kelgan o'ziga xos olam. Shuning uchun ham o'quvchi yuksak saviyada yaratilgan she'rlarni o'qiganda o'ziga yangi bir dunyoni kashf etadi. Qolaversa, har bir ijodkor, eng avvalo, o'z xalqining farzandi sifatida uning orzu istaklari, dard va armonlarini turli xil ifodalarda badiiy talqin etadi.

Abdulla Oripov she'riyatida insonning o'z-o'zini anglashi, uning fazilatu illatlari, taqdiri, umuman butun murakkabligi badiiy talqin qilinadi. Shoirning “Haj daftari” turkum she'rlarida diniy-ma'rifiy masalalar o'ziga xos tarzda ifoda qilingan. Xususan, “G'iybat” she'rida shunday satrlar uchraydi:

Do'zax yo'llaridan o'tarkan Rasul,
Atrofiga ko'z tashlar edi damodam.
Kimdir faryod solib yig'lardi nuqul,
Otashda yonardi o'zga bir odam.

Yo'lning kanorida – shundoq sarhadda
O'limtik yer edi allaqanday zot.
Nogoh Rasululloh boqib hayratda,
Jabroilga dedi: – Bu kimdir, hayhot!¹.

Mazkur she'rdan inson hayoti, umri mohiyati Foni va Boqiy dunyo mutanosibligida tasvirlanadi. Bu esa insonni o'z hayoti, yashash tarzi, halolu xaromni anglashi kabi masalalar mohiyatini anglashga chaqiradi. Ahamiyat bersak mazkur she'rdan shoir asosiy e'tiborni Rasululloh nazarida na faryod solib yig'layotgan (“Kimdir faryod solib yig'lardi nuqul”) na o'tda yonayotgan (“Otashda yonardi o'zga bir odam”) odamga qaratmagan. Chunki anglashiladiki, ular o'z umrida shunga munosib tarzda hayot kechirishgan. Shuning uchun ham do'zax azobida qiynalmoqda. Lekin Rasulullohning

¹ Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar. -T.: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 2001. 216-bet.

o‘limtik eb turgan odamni ko‘rib uning qismatini tushunmay hayratga tushishi (“Bu kimdir, hayhot!”) kitobxonni yanada taajjubga soladi. She’rda tasvirlanishicha “Yo‘lning kanorida – shundoq sarhadda” ya’ni hatto do‘zaxga ham ravo ko‘rilmayotgan bu odamning kimligini shoir Jabroil tilidan shunday tasvirlaydi:

Jabroil aytdikim: – Bunda har kimsa,
Jazosin olgaydir qilmishiga xos.
O‘limtik yeguvchi bul banda esa,
Umrin g‘iybat bilan o‘tkazgan, xolos .¹

Ushbu tasvirlarda shoirning yuksak darajadagi tafakkuri va badiiy mahorati aks etadi. Demak, g‘iybat qilish, insonlar orasiga nifoq solish kechirilmas gunohdir. Negaki, bilmay biror noto‘g‘ri ishga qo‘l urish bilan ongli ravishda qilingan gunoh ish mutlaqo boshqa narsa. Bu haqida muqaddas dinimiz va hadislarda ham ko‘p zikr etiladi.

Adabiyotshunos olim I.Haqqulov ta’kidlaganidek, “Har bir lirik janr badiiy ijod olamida o‘zining g‘oyaviy-badiiy vazifasi bilan tug‘iladi. Aks holda janr xilma-xilligi to‘g‘risida gap bo‘lishi mumkin emas. Odatda, she’r hayotiy zaruriyat, ma’naviy-ruhiy ehtiyojdan dunyoga keladi. Janr kategoriyasi ana shu ehtiyoj va zaruratning turli tarzda shakllanishi, shaklga munosib mazmun, mazmunga munosib shakl holida ko‘rinishidir” .²

A.Oripovning “Haj daftari” turkumiga kirgan barcha she’rlarida yuqoridagi ta’rif o‘z aksini topadi. Shoir ijodida shakl va mazmun mutanosibliigi mukammal aks etadi. Mazkur turkumdagi “Farzand” she’rida ota o‘z farzandi kamoli uchun har qanday holatda ham o‘zidagi ma’naviy qiynoqlarni engib o‘tishi tasvirlanadi.

Bir kuni ranjitdi otani farzand,
Ota o‘z uyidan bosh olib ketdi.

¹ Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar. -T.: G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 2001. 216-bet.

² Haqqulov I. Ijod iqlimi. – T.: Fan, 2009. 287-bet.

Lekin Alloh mehri bo‘lib sarbaland,
Ota Makkatulloh vasliga etdi...

Ka‘bani sig‘inar ekan keksa chol,
Armonin oshkora aytdi olamga.
Dedi: – Ibodatim bo‘lsa ham uvol,
Faqat saodat ber o‘sha bolamga.¹

“She‘riyatda inson yuragining sir-asrori aks etadi. Inson yuragining sirli tomoni shundaki, u dunyoga avval boshdanoq zabt etilgan holda keladi. Shuning uchun non deb yig‘lamaydi u, obro‘ deb o‘kinmaydi. Yurak – g‘oyibdan kelib ichimizga o‘rnashgan elchi. U, alaloqibat, o‘sha g‘oyibning irodasiga bo‘ysunadi. She‘riyat esa ichimizdagi elchilarning xos suhbatidir” – deya ta‘kidlagan edi, adabiyotshunos Rahimjon Rahmat.

A.Oripovning yuqoridagi she‘rlarida butun bashariyatga xos qadriyatlar, inson taqdiri va kamoloti, xarom va halol mohiyati kabi ma‘naviy-ma‘rifiy muammolar diniy-ma‘rifiy tushunchalar bilan ifoda qilanadi. Mazkur she‘rlar insonga muayyan ma‘noda o‘z ta‘sirini o‘tkazadi, asar mazmunidan o‘ziga tegishli xulosa chiqarishga chorlaydi. Shoir she‘riyati o‘zining sermazmunligi, fikrlar teranligi, badiiy ifodaning o‘ziga xosligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Shoir she‘rlarida qaysi mavzu qalamga olinmasin, barchasida butun bashariyatga oid muammolar haqida o‘quvchini hayratga soladigan tarzda badiiy talqin etiladi. A.Oripov ijodida uchun xos bo‘lgan shunday mavzulardan biri bu – ayollar madhi. Bu borada shoirning “Ona” deb nomlangan she‘ri alohida ahamiyat kasb etadi:

Ka‘ba qopqasida turgan, ey posbon,
Avval onalarning ochgin yo‘llarin.
Onalar poyiga tiz cho‘k o‘shal on,

¹ Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar. -T.: G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 2001. 205-bet.

Tavof qil, ko'zga surt, o'pgin qo'llarin (189-bet).

E'tibor qilsak, ushbu she'rda musulmonlarning eng tabarruk, muqaddas joyi sanalmish Ka'ba qopqasidagi posbonga ham Onalarni tafov qilish, ularga hurmat-ehtirom ko'rsatish ta'kidlanayapti. Shu ma'noda, mazkur she'rda shoir Onalarning qanchalik ulug' va mo'tabar zot ekanligini tasvirlashda betakror badiiy ifoda yaratgan.

A.Oripov she'riyatning to'rtlik shaklida samarali ijod qilgan shoirlardan biridir. Uning to'rtliklarida inson fe'lida mavjud fazilat va illatlar o'z ifodasini topadi. Shoir to'rtliklarida inson buyuk yaratuvchi, cheksiz idrok sohibi, shu bilan birga mazkur fazilatlarining tom ma'nodagi aksini keltirib chiqaruvchi shavqatiz qudrat egasi sifatida ham talqin etiladi.

Paydo bo'lganida zamin va zamon,

Avval yaralgandir daraxt va hayvon.

Bul ikki soddani aldamoq uchun,

Aqlini pesh qilib chiqqan so'ng Inson (250-bet).

Insonga nisbatan berilgan mazkur ta'rif va tasvir kishini teran fikr yuritishga chorlaydi. Zero, shoir to'rtliklaridagi ma'nodorlik hayotiy haqiqatlar hosilasi sifatida yangraydi. Shu sababli ularda har bir o'quvchi o'zning axloqiy fazilatlarini yoki fe'lida mavjud illatlarni anglashi mumkin.

Adabiyotshunos olim N.Rahimjonov ta'kidlaganidek, "Adabiyotning bosh vazifasi bu – insonni himoya qilish, insonni ulug'lash, undagi g'ayriinsoniy illatlar va odamiylik fazilatlarini kashf etish. Insonning ko'nglidagi rahmon bilan fe'lidagi shaytonning sir-sinoatlarini, qilmish-qidirmishlarini ochib berish"¹ ekan A.Oripov she'riyati misolida bu fikrlarning amaliy tasdig'ini kuzatish mumkin.

Shoirning "Ona degan nom..." she'rda esa shunday satrlarni uchratamiz:

Dunyo shoirlari Vatan sha'niga

¹ Rahimjonov N. Mustaqillik davri o'zbek she'riyati. –T.: Fan, 2007. 16-bet.

Sifat axtarmishlar qator va qator,

Nihoyat, kelmishlar bitta ma'niga:

Ona-Vatan deya bitmishlar ash'or (76-bet).

Ushu satrlarida A.Oripov ijodiga xos bo'lgan muhim bir tamoyilni ko'rishimiz mumkin. Unda hayot haqiqati bilan qalb haqiqatining uyg'unligi mukammal saqlangan holda o'zining betakror badiiy ifodasini topgan. Zero, hayotda har bir insonning kamol topishida, uning kelajagi yo'lida Ona va Vatan rolini hech narsa bilan taqqoslab bo'lmaydi. A.Oripov ijodida hayot hodisalarini, turmush realliklarini realistik yo'sinda ifodalash, inson fe'l-faoliyatini teran tahlil etish yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu narsa shoir ijodida ijtimoiy faollikning kuchliligini belgilash bilan birga she'rlaridagi badiiy-falsafiy ma'nolar quyugligini ham belgilaydi.

Shoir ijodida Onalarga bo'lgan ehtirom, mehr va ular oldida mas'uliyat alohida mavzuni tashkil etadi. Ko'rinadiki, A.Oripov she'riyatida inson hayotining butun murakkabligi hamda uning mazmun-mohiyati tadqiq etiladi. Shu bilan birga insonlarning bir-biriga, tabiatga qanday munosabatda bo'lishi lozimligi va insoniy burchi turfa ko'rinishlarda tahlil qilinadi. Ularning she'rlarida inson ruhiyati, his-tuyg'ularini turli xil ziddiyatli buyoqlarda aks ettirish, odamzod qalbini band etgan muammolarni butun murakkabligi bilan tasvirlash, umuminsoniy qadriyatlarni tarannum etishga intilish yetakchi tamoyillardan sanaladi.

X U L O S A

Abdulla Oripovning poetik tafakkur tarzini adabiy-nazariy jihatdan tadqiq qilish natijasida amin bo'lish mumkinki, iste'dodli, chinakam san'at ahlining xalq qalbiga quloq tutishi, o'z "men"ligida xalq dard-alamlarini, shodlik-sururlarini jamlay olishi, "xalqim" deganda bevosita "men"lik ruhida sobit turishi yuksak saviyadagi badiiyat namunalarini yaratish uchun zamin hozirlaydi. To'g'ri, XX asr o'zbek shoir va adiblarining ko'pchiligida milliy ruh, millatparvarlik tuyg'ulari barq urib turadi. Ammo Abdulla Oripov asarlarida bu holat, xususan, xalqqa yaqinlik, soddalikdan xalqona falsafiy xulosalar yasay olish mahorati, xalqchil obrazlardan mahorat bilan foydalanish malakasi, his-tuyg'ularni, she'r uchun ilhom bergan muayyan voqelikni lo'nda va aniq ifodalash uslubi boshqalardan alohida ajralib turadi. Bu shoir mustabid tuzum davrida ham milliy o'zligiga, o'z xalqining azaliy qadriyatlariga sodiq qoldi. She'rlari uchun ayni masalalar yetakchi mavzu bo'ldi.

Abdulla Oripov istiqlol davri adabiyotining iste'dodli namoyandalari qatorida yangilanayotgan jamiyatni, yangicha mazmun kasb etayotgan hayotni, turmush haqiqatini ozod so'z va fikr vositasida haqqoniy aks ettirgan holda yosh avlod dunyoqarashining shakllanishida, komil inson bo'lib voyaga yetishida faol ishtirok etmoqda. Ayniqsa, shoir istiqlolni qadrlashga va mustahkamlashga, inson va xalqning ruhini ko'tarishga, qiyinchiliklarni engib, kelajagi buyuk davlat qurishdek olijanob maqsadlar sari chorlaydigan asarlar yaratdi. U o'z ijodi bilan badiiy-estetik tafakkurning kuch va qudratini namoyish etmoqda. Xalqning ma'naviy-axloqiy dunyosi aks etgan asarlarini xalqona poetik tafakkur nuqtai nazaridan jiddiy tadqiq etish adabiyotshunoslikdagi juda muhim va dolzarb muammodir. A.Oripovning "Uchqur xayol sohibi yigit...", "Muhabbat", "Xayr endi", "Hangoma",

“Samoviy mehmon, besh donishmand va farrosh kampir qissasi”, “Sharq hikoyasi”, “Deydilar... “, “Eski quduq”, “Bemor va tabib”, “Alisher va talaba”, “Marhumlar sha’ni” hamda “Hakim va ajal” kabi asarlari tadqiqotimiz oldiga qo‘ygan ilmiy maqsad va vazifa doirasida atroflicha o‘rganib chiqildi. Ular xalqimizning ming yillar silsilasida shakllangan ruhiyatini, estetik qarashlarini, shuningdek, sharqona milliy xususiyatlarini, xulq-atvori, marosimlari, urf-odatlarini, hayotdagi yaxshi-yomon hodisalarni baholash, insonning ma’naviy olamini yoritish kabi g‘oyalar bilan sug‘orilgani ma’lum bo‘ldi.

Shoir she’rlari tilining soddaligi, aniqligi va tiniqligi bilan ajralib turadi. Ularda milliy iboralar, qochiriq-kinoyalar, tabiiy obrazlar va hazillar ko‘p qo‘llaniladi. Xalq tili bilan badiiy til uyg‘unlashib, tiniq va lo‘nda poetik ifodalar tusini oladi. Tadqiqot mavzusi asosida olib borilgan izlanishlar, talqin va tahlillar quyidagicha xulosalar chiqarishga imkon beradi:

– XX asrning 60-yillaridan bugungi kungacha yangi o‘zbek adabiyoti tarixini yaratishda salmoqli o‘rin tutib kelayotgan Abdulla Oripov ijodi badiiy-estetik tafakkurimizni yangi bosqichga ko‘tardi. O‘z asarlarida ijtimoiy voqelik jarayonlari bilan xalq hayotini uyg‘unlikda badiiy talqin etishning yangi sahifalarini yaratdi. Shu bois, shoirning poetik tafakkuri xalqona xususiyatiga ko‘ra o‘rganildi. Ilk she’rlaridayoq milliy ruh – xalqning orzu-armonlarini badiiy tasvirlagani, millat ruhiyati bayonida g‘oyat samarali yo‘ldan borib, xalq og‘zaki ijodi namunalaridan unumli foydalangani aniqlandi. Zero, bu tamoyil shoirning butun ijodiy merosiga xos xususiyat sanaladi.

– Abdulla Oripov jahon va rus, o‘zbek mumtoz va zamonaviy badiiy tafakkurining, xususan, she’riyatining ijodiy an’analarini, fazilatlarini va yutuqlarini o‘ziga singdirib, xalq qalbidan mustahkam o‘rin olgan adabiy durdonalar yaratdi. Abdulla Oripov inson va omma ruhiyatidagi jami

murakkabliklarni ifodalashda shoirning original badiiy olami bilan folklor an'analaridagi usullar o'zaro birlashdi. SHu bois, xalqona poetik tafakkur negizida maydonga kelgan shoir qator asarlari mohiyatida falsafiy, hikmatli mazmun va badiiy joziba, soddalik, samimiyluk yaqqol ko'zga tashlanib turadi.

– Abdulla Oripovning poetik ijodi tematik jihatdan juda boy. Ishq-muhabbat va hijron izzitroblari, Vatanga muhabbat va shoirlik burchi, millat taqdiri va ona yurt istiqboli, o'zbek xalqining shonli o'tmishi va mustaqillik muvaffaqiyatlaridan iftixor, milliy g'urur tuyg'usi, ayolga, onaga bo'lgan adoqsiz ehtirom va mehr-muhabbat mavzulari yuksak mahorat bilan kuylanadi. Xalq va Vatan manfaatlari uchun jon fidolik ona tabiat va ma'naviyat muhofazasi ham shoir she'riyatining yetakchi yo'nalishlaridir.

– mutafakkir shoirning badiiy uslubida xalqchilik xususiyati etakchilik qiladi. Abdulla Oripovning o'ziga xos badiiy tafakkurida xalq maqollari, matal va hikmatli so'zlardan, bir so'z bilan aytganda, ifoda vositalaridan ijodiy foydalanish tamoyili kuchlidir. Unda so'z va obraz o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi; badiiy tafakkurda sintezlashuv jarayoni kechadi, ayniqsa, she'rning shakl va muzmuni, ritm va ohangi tadqiqida ayni xususiyatlar yaqqol ko'zga tashlanadi.

– xalqona ruhda yozilgan "Hangoma" she'ridagi voqealarda botiniy hamda zohiriy tarzda ikki qatlamli badiiy tahlil usuli qo'llanilgani shoirning yuksak mahoratini namoyon etadi. Bunday badiiy-tasviriy usulning qo'llanishi oddiy hangoma tarzidagi badiiy asar orqali jiddiy falsafiy muammolarni yoritish imkonini beradi.

– ijtimoiy voqelik shoirga ya'ni bevosita va bilvosita ta'sir qiladi. Birlamchi shoir ana shu voqelik ruhiyatini, hayotiy jarayonlarning o'zini bevosita ko'rsatsa, ikkalamchi, mazkur jarayon oqibatida jamiyat ruhiyatini, fikrlash tarzini va tafakkur darajasini aks ettiradi. Shunga asoslanib, keyingi

yillarda xalqimizning intellektual dunyosi teranlashdi, uning fikrlash xarakteri yangicha ma'no kasb etdi, deyish mumkin. Shaxs tabiatidagi ana shu evrilishlar mohiyat-e'tibori bilan uning ongi –saviyasini, mushohada doirasini ham kengaytirib yubordi. Demak, shoirlarning tasvir obyekt – zamondoshimiz ham yuksak saviyali, intellektual shaxsdir. A.Oripovning ijodiy izlanishlarida ham ushbu fikrlarning tasdig'ini topishimiz mumkin. Komil ishonch bilan aytish joziki, A.Oripov she'riyati xalqimizning so'nggi o'n yilliklardagi bunyodkorlik ishlarini, istiqlol davrida erishilgan yutuqlarni xalqimiz tafakkuriga she'riy satrlarda tushuntirishda, mustaqillik ne'matini ommaning ongiga singdirishda yetakchilik qildi.

Bunday sifat o'zgarishlar shoir lirikasida obyektiv voqelik taqozosi bilan yuzaga chiqdi. Bu davrda faqat inson shaxsining o'zigagina emas, balki u bilan bog'liq bo'lgan sanoqsiz hayotiy omillar ham shoirlar diqqat markaziga o'tgan edi. Yana bir muhim jihati shoir ijodida bo'rtib ko'rinadiki, zamondoshimiz qalbini davr qalbi bilan omixta tadqiq etish bosh omil bo'lib yuzaga kelmoqda. Natijada Vatanni o'rganish, uning har bir go'shasini azizlash, insonni qadrlash bilan bir narsa ekanligi yaqqol ko'zga tashlanadi.

Yuqoridagi tahlil nazariy qodialaridan kelib chiqib, she'riyat borasidagi olim va munaqqidlarning fikrlarini, hayotiy mushohodalarini, ilmiy asoslarini ham keltirib o'tdik. Shu xildagi umulashma qarashlarimiz A.Oripov lirikasi va uning badiiyatiga ham taalluqlidir. Jumladan, shoir she'riyati Vatan, muhabbat hamda inson va uning jamiyatdagi o'rni, qadri xususida g'oyat ta'sirchan ifoda etilganligi bilan ham qadrlidir.

Bularning hammasi, o'z navbatida, zamondoshlarimiz erkin shaxs sifatida bugungi tarixiy evrilishlar jarayonida o'z o'rni va rolini g'oyat chuqur his etganligidan ham dalolat beradi. Bunday hissiyotlarni qamrab olgan shoir lirikasi, o'z-o'zidan, insonning dunyoni va ijtimoiy voqelikni idrok etish holatlarini sershiddat jarayonga aylantirib yuborishi tabiiydir.

Zero, asrlar davomida jiddiylashib, evrilib kelayotgan shoirlarimiz dil izhorlari butun jamiyat tafakkuriga ta'sir etishi, millat ruhiyatida ertangi kunga ishonch hosil qila olishi shoirning badiiy mahoratidan va chin iste'dod egasi ekanligidan dalolat beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. –T.: O'zbekiston, 2009.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008.
3. Mirziyoev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –T.: O'zbekiston, 2016.
4. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. –T.: O'zbekiston, 2017.
5. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.: O'zbekiston, 2017.
6. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. –T.: O'zbekiston, 2017.
7. Afoqova N. Abdulla Oripov lirikasida badiiy san'atlar. Filol.fanlari nomzodi.....diss. avtoref. –T., 1997.
8. Ashurova G. Abdulla Oripov she'riyatida an'ana va badiiy mahorat (obraz, g'oya va tasvir). Filol.fanlari nomzodi.....diss. avtoref. –T., 2008.
9. Aristotel. Poetika. –T.: Adabiyot va san'at, 1980.
10. Boboev T. Adabiyotshunoslik asoslari. –T.: O'zbekiston, 2002.
11. Begimqulov D. She'riyatimiz yulduzi //Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar. 4 jildlik. –T.: Ma'naviyat, 2000. 1 jild.
12. Gorkiy M. Adabiyot haqida. –T.: O'zdavnashr, 1962.
13. Jabborov I. Abdulla Oripov she'riyatida tarixiy shaxs talqini. –T.: Fan, 2008.
14. Mamajonov S. Teranlik. –T.: Adabiyot va san'at, 1987.
15. Norboev B. Hayotni poetik talqin etish tamoyillari va mahorat muammolari. Filol. fan. d-ri..dis. avtoref. –T., 1996.

16. Nazarov B. Abdulla Oripov. Adabiy portret // XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. Oliy ta'lim darsligi. N.Karimov, S.Mamajonov, B.Nazarov, U.Normatov, O.Sharafiddinov. Hammuallif. –T.: O'qituvchi, 1999.
17. Olimov M. Hozirgi o'zbek adabiyotida pafos muammosi. –T., 1994.
18. Normatov U. Davr tuyg'usi. –T.: O'qituvchi, 1987.
19. Rahmonova M. Abdulla Oripov she'riyatida badiiy butunlik. Filol.fanlari nomzodi.....diss. avtoref. –T., 1998.
20. To'lakov I. Hozirgi o'zbek lirikasida davr va qahramon talqini. Filol. Fanlari d-ri..dis. avtoref. –T., 1994.
21. To'xliiev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. –T.: Yangi asr avlodi, 2006.
22. Turdimov J. Lirik kechinma va obrazlilik. – Toshkent, // O'zbek tili va adabiyoti, - 2000. - № 5.
23. Umurov H. Adabiyot nazariyasi. –T.: Sharq, 2002.
24. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. –T.: O'qituvchi, 1980.
25. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. –T.: Sharq, 2004.
26. Qo'shjonov M. Kamalakdek serjilo // Abdulla Oripov. Yillar armoni. –T.: Adabiyot va san'at, 1984.
27. Qo'shjonov M. Onajonim, she'riyat (A.Oripov ijodi haqida). –T.: O'qituvchi, 1984.
28. Qo'shjonov M., Suvon Meli. Abdulla Oripov. Ijodiy portret. –T.: Ma'naviyat, 2000.
29. Qosimov Y. «Tilla baliqcha»ning tolei. – Toshkent, // Sharq yulduzi, - 1986, - № 12.
30. Haqqul I. Badiiy so'z shukuhi. –T.: Adabiyot va san'at, 1987.
31. Hamdamov A. Abdulla Oripovning «Hangoma» she'rida xalqona ruh. – Toshkent, // O'zbek tili va adabiyoti, - 2003. - № 4.
32. Hamdamov A. Abdulla Oripov she'riyatida insoniylik talqiniga doir. – Toshkent, // O'zbek tili va adabiyoti, - 1998. - № 2.

33. Hamdamov A. Abdulla Oripov ijodida folklor an'analari // O'zbek tili va adabiyoti, 2004. № -6.
34. Vohidov E. Har zamonning o'z muhri bor // Guliston. –T.: 2003. -№ 3.
35. Yo'ldoshev Q. Adabiyotshunoslik nadur? // Tafakkur. –T.: 2000. -№ 3.
36. Oripov A. Umr qisqa, qarz esa katta... // Sharq yulduzi. -1991. -№ 4.
37. Soliev A. Abdulla Oripovning “Hangoma” she'rini o'rganish // Ma'rifat. - 1991.-№ 24.
38. Yusuf M. She'r osmonidan tushmaydi // O'zbekiston adabiyoti va san'ati. -1991. 29- mart.
39. Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar. To'rt jildlik. Birinchi jild. She'rlar va dostonlar. –T.: Adabiyot va san'at, 2000. Ikkinchi jild. She'rlar, dostonlar. 2001. Uchinchi jild. Tarjimalar. –T., 2001. To'rtinchi jild. Kinossenariy, maqolalar, suhbatlar, xotiralar, qaydlar. –T., :2001.
40. Abdulla Oripov. Saylanma. She'rlar va dramatik doston. –T.: Sharq, 1996.
41. Abdulla Oripov. Menga xush xabar ayt. She'rlar. –T.: Ma'naviyat, 2009.
42. www.pedagog.uz
43. www.Ziyonet.uz
44. www.Ziyouz.com